2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 252 (1313), 2024-yil 12-dekabr, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

ZAMONAVIY BUNYODKORLIK VA OBODONLASHTIRISH LOYIHALARIDA MILLIY RUH BO‘LISHI KERAK

Prezident Shavkat Mirziyoyev 11-dekabr kuni qurilish va obodonlashtirish loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Zamon rivojlangani sari odamlarning ta’bi ham, talabi ham o‘sib bormoqda. Shunga yarasha yangi qurilishlarga, munosib sharoitlarga ehtiyoj tug‘ilmoqda.

Toshkent shahridagi Yunusobod dehqon bozori hamisha gavjum, kenga-yishga esa joy yo‘q. Yana bir muammo — tirbandlik. Shu bois, uni zamonaviy konsepsiya asosida yuqoriga “o‘stirish”, savdo o‘rinlari va qulayliklarni ko‘paytirish rejalashtirilgan. Loyihaga ko‘ra, avvalo, asliyat saqlab qolinib, hozirgisining o‘rnida uch qavatli ekobozor quriladi. Uning yonida qo‘shimcha savdo markazi hamda zargarlik uyi barpo etiladi. Eng muhimi, ushbu binolarning yer osti qismi mingdan oshiq avtomobil sig‘adigan turargoh bo‘ladi. Jami 4-5 ming ish o‘rni ochiladi.

Mutasaddilarga bular sababli bozor faoliyatini to‘xtatib qo‘ymaslik, qurilishni bosqichma-bosqich amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Keyingi loyihalar istirohat bog‘larini obodonlashtirish va yangilarini qurishga oid. Poytaxtimizdagi Abdulla Qodiriy bog‘i obodonlashtiriladi. Relyefdan to‘g‘ri foydalanib, yashil hududlar ko‘paytiriladi. Sayr va tomosha joylari, favvoralar, yangi planetariy quriladi. Sayyohlarni jalb qilish uchun gastro-xol tashkil etiladi. Bu Chorsu bozori, umuman, eski shahar bilan yanada uyg‘un bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari bog‘da sharoitlarni yaxshilash va an’analarni aks ettirish zarurligini ta’kidladi.

— Bu rejalar yaxshi. Faqat milliy ruh qo‘shish kerak. Bu yerda shaharning tarixi, xalqimizning an’analari aks etsin. Har bir yosh toifasidagi inson bog‘da o‘z joyini topa olsin, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

“Do‘stlik” bog‘i ham yangilanib, aholini o‘ziga jalb etuvchi maskanga aylantiriladi. Sayr yo‘laklari, suv havzalari, dam olish joylari ta’mirlanib, o‘rindiqlar o‘rnatiladi. Oilaviy ko‘ngilochar maskan va bolalar ijod markazi tashkil qilinadi. Yoshlar uchun skeyt maydonchasi, daraxtlar bilan uyg‘un aviariy hamda tomosha charxpalagi quriladi.

Ma’lumki, shu yerda Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi joylashgan. Uning ortidagi maydonda yurtimizdagi milliy madaniyat markazlarining pavilonlarini barpo etish rejalashtirilgan. Ular har bir millatning uyi shaklida bo‘lib, o‘ziga xos madaniyat va an’analarni ifodalaydi. Bu hudud “Do‘stlik” bog‘i bilan hamohanglik kasb etadi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2019-yilda Toshkent shahrida “Navro‘z” bog‘i barpo etilgan edi. Hozirgi kunda u shahar markazidagi obod va gavjum maskanlardan biri. Tashrif buyuruvchilarga sharoitlarni yanada kengaytirish maqsadida bu yerda mehmonxona, yopiq sport maydonchasi, restoran, konferensiya zali bunyod qilish ko‘zda tutilmoqda.

Mamlakatimizda hududlarni kompleks rivojlantirish doirasida barcha joylarda yangi mavzelar, parklar, ko‘ngilochar maskanlar qurilmoqda. Jumladan, Nurafshon va Namangan shaharlarida ham “Yangi O‘zbekiston” bog‘lari barpo etilgan. Navbatdagi loyihalar ulardan foydalanish samaradorligini oshirish va mehmonlarni ko‘proq jalb etishga qaratilgan.

Buning uchun Nurafshon va Namangandagi “Yangi O‘zbekiston” bog‘lari yonida turizm markazlari tashkil qilinadi. Ularda Sharq bozori, hunarmandchilik joylari, amfiteatr, favvora va boshqa qurilmalar bo‘ladi. Daraxtlar ekilib, yashil hudud kengaytiriladi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni sifatli qilish, bog‘larda aholi va turistlar uchun qulay sharoitlarni yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘zA

KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIK YUZASIDAN FIKR ALMASHILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin 11-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqotda O‘zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish hamda mustahkamlashning dolzarb masalalarini muhokama qildilar.

Rossiya Prezidentining joriy yil may oyida O‘zbekistonga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni yetakchilar tomonidan tasdiqlangan “yo‘l xaritasi” asosida amalga oshirish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Kuni kecha Moskva shahrida o‘tgan Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo qo‘shma komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi va ikki tomonlama muzokaralarning natijalari yuqori baholandi.

O‘zaro tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlari o‘sishini ta’minlash, sanoat, energetika, transport, qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalarini jadallashtirish, O‘zbekiston va Rossiya hududlari hamda ishbilarmon tashkilotlari darajasida faol muloqotlarni davom ettirishga qaratilgan o‘zaro muvofiqlashtirilgan choralar ko‘rish muhimligi ta’kidlandi.

Innovatsiyalar, sun’iy intellekt, ta’lim va tibbiyot sohalarida hamkorlik kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Noyabr oyida Rossiyada O‘zbekiston madaniyati kunlari doirasidagi tadbirlar muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Xalqaro kun tartibidagi masalalar hamda joriy yil dekabr oyi oxirida bo‘lib o‘tadigan oliy darajadagi uchrashuvlarga tayyorgarlik ko‘rish nuqtayi nazaridan mintaqaviy tashkilotlardagi ko‘p tomonlama hamkorlik yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zA

Nuqtayi nazar

XALQIMIZNING HUQUQIY TAFAKKURI IFODASI

Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim voqealarga boy bo‘lgan yana bir yil o‘z poyoniga yetib, tarixga aylanib bormoqda.



Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiq, birinchi marta aralash (majoritar va proporsional) tizim asosida o‘tkazilgan parlament saylovi bunga yorqin misol bo‘la oladi. Binobarin, davlatimiz rahbarining Bosh qonunimiz qabul qilinganining 32 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan bayram tabrigida qayd etilganidek, **“Mehnatkash, olijanob va bag‘rikeng xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi xohish-irodasi, birligi va hamjihatligi, siyosiy madaniyati yaqqol namoyon bo‘lgan ushbu saylovlar natijalariga ko‘ra, yurtimizda konstitutsiyaviy huquq va vakolatlari kuchaygan, mas’uliyati bir necha karra ortgan yangi vakillik tizimi shakllangani albatta barchamizni mamnun etadi”.**

Davomi 2-betda

Inson va tabiat uyg‘un. Barchamiz tabiat bilan murosa qilib yashashga majburmiz. Yon-atrofimizdagi o‘zgarishlar, ekologik tanazzul va turli tabiiy ofatlar ta’sirini hayotimizda his etayotgan bir sharoitda ana shu majburiyat insoniyat zimmasiga katta mas’uliyat yuklamoqda. Bunga o‘zimiz sababchimiz. Chunki tabiiy boyliklarni tuhfa deb bildik. Ayamasdan foydalandik, foydalanyapmiz.

O‘ZGARAYOTGAN SHAROIT

zimmamizga katta vazifa va mas’uliyat yuklamoqda



Olimlar fikricha, suv organizm uchun hayotiy muhim omil. Tananing 70 foizi suvdan iborat. Ana shu suv miqdori bir oz kamaysa ham inson salomatligida yetarlicha muammolar yuzaga keladi. Tabiat ham shunday — muvozanati buzilsa, salbiy ta’siri yon-atrofimizdagi o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi. Ming afsuski, so‘nggi paytlarda tabiat nomutanosibliklari juda ko‘p kuzatilyapti. Qayerdadir ob-havo isib ketyapti, qayerdadir sovuq zabtiga olyapti. Ba’zi joylar suv toshqiniga duch kelgani holda ayrim hududlarda obihayot yetishmasligi ortib boryapti. Qurg‘oqchil maydonlar kengaymoqda. Cho‘llanish, tuproq eroziyasi kabi omillar oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy xavf solyapti. Olayotgan nafasimiz notoza, ichayotgan suvimiz kamyob bo‘lib boryapti. Yerimiz, tuprog‘imiz tobora kuchsizlanmoqda. Bular endi muammo haqida gapirishning nafi yo‘qligini, aksincha, amaliy ishlarga kirishish, tezkor choralar ko‘rish kechiktirib bo‘lmaydigan vazifaga aylanganini anglatadi.

Mamlakatimizda bu borada salmoqli ishlar bajarilyapti. 2025-yilga “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deya nom berilgani ana shu ishlar yangi bosqichga ko‘tarilishidan dalolat. Binobarin, kelgusi hayotimiz tabiatni nechog‘liq avaylab, asray olishimizga bog‘liq.

Davomi 3-betda

Munosabat

Prezidentimizning joriy yil 20-noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida so‘zlagan nutqi vatanimiz siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-madaniy hayotida muhim o‘rin tutadi. Oktabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatligiga o‘tkazilgan saylov mamlakatimizdagi keng ko‘lamli va shiddatli islohotlar xalq bilan muloqot prinsipiga uyg‘un va hamohang ekanini namoyon etish barobarida mas’ullar faoliyati samaradorligini yanada oshirishga xizmat qildi.

MA’NAVIYAT VA IQTISODIYOT ikki tayanch ustun



Yurtimizdagi keng ko‘lamli islohotlar, o‘zgarish va yangi loyihalar, eng avvalo, inson qadrini ulug‘lash, xalqimizni rozi qilish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilayotgani fuqarolar huquq va manfaatlarini ta’minlashda muhim omil bo‘layotir. Bu boradagi yangilanishlarning asosini yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga e’tibor tashkil etadi. Zotan, Prezidentimizning har bir nutqida ta’kidlanganidek, bugun eng katta investitsiya sifatida ko‘rilayotgan ta’lim sifatini oshirish yangi O‘zbekistonni rivojlantirishning yagona to‘g‘ri yo‘lidir. Yig‘ilishda yoshlarimiz ongu tafakkurida milliy g‘urur bilan birga umumbashariy qadriyatlarga hurmat hissini kamol toptirish maqsadida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish zarurligi qayd etildi.

Yangi O‘zbekistonni yaratish zaminida kuchli mafkura turadi. Bugun mazkur tushuncha real voqelikka aylanmoqda. Chunki yangi mafkuraga nazar tashlasak, uning ilmiyligi, tizimliligi, hayotiyligi va natijadorligiga amin bo‘lamiz.

Davlatimiz rahbari **“Bizning ikkita o‘q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri — iqtisodiyot, biri — ma’naviyatdir. Ma’naviy buyuk xalq — iqtisodiy tomondan ham buyuk bo‘ladi”,** deb ta’kidladi. Iqtisodiyotni tizim tarzida tahlil qilsak, bu ikkita yirik supertizim jamiyat va tabiat kesimida vujudga kelgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, iqtisodiy tizim bir tomondan jamiyat, ikkinchi tomondan tabiatning bir bo‘lagidir. Shu ma’noda, har bir barkamol shaxsga jamiyatning bir a’zosi, fuqarosi deb qaraganda, uning munosabati va xatti-harakati tahlil etiladi. Avvalo, bu o‘rinda inson noz-ne’matlar, xizmatlar, ma’naviy, madaniy tovar va axborot iste’molchisi deb o‘rganiladi. Bunday qarashda uning ezgulik va odamgarchilik xislatlari ustuvor bo‘ladi, jamiyatdagi voqea-hodisa va jarayonlarga munosabati, ishtiroki, fikri va tarbiyaviy darajasi katta ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot va ma’naviyat o‘rtasida ketma-ketlik yo‘q, ammo o‘zaro bog‘liqlik, ya’ni ikki tomonlama aloqa mavjud. Bu ilmiy tilda o‘zaro korrelyatsiya deyiladi.

Davomi 5-betda

SAYYOHLIK YO‘NALISHIDAGI ENG YIRIK LOYIHA

Qashqadaryoda umummavsumiy kurort majmuasi quriladi

G‘elon nafaqat vohaning, balki mamlakatimizning eng baland nuqtasida joylashgan qishloqlardan biri. O‘ziga xos tabiati, purviqor tog‘lari, zilol suvi, toza havosi, ajib manzaralari bilan kishini maftun etadi. Olisdan qaraganda mo‘ysafid kabi boshiga oppoq salla o‘ragan osmono‘par cho‘qqilardan yil davomida qor erimasligi sababli qishloq yoz faslida ham salqin bo‘ladi. Ertakmonand qishloq hududiga kirib borar ekansiz, bexosdan qo‘lga qalam olib, ajib ko‘rinishni tasvirlaging, yuragingda jo‘shqinlik mavj urib, hayqirging, bir satr bo‘lsa-da, she’r yozging keladi. Qo‘l uzatsang, yetgudek bulutlarga termilib, xayollarga sho‘ng‘ib ketasan. Borliqni unutib, ona tabiat qo‘ynida yayraging kelaveradi. Havoning musaffoligidan to‘yib-to‘yib nafas olgan kishi o‘zini yanada yoshargandek sezadi.

Davomi 2-betda

Qaror va ijro



Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi. Majburiy mehnatni taqiqlash bo‘yicha kafolatlar kuchaytirilib, majburiy mehnatga barham berildi. Majburiy mehnat hamda bolalar mehnatidan foydalanishga chek qo‘yildi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 12-dekabr, 252-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_of yuz

Nuqtayi nazar

XALQIMIZNING HUQUQIY TAFAKKURI IFODASI





Asqar G‘AFUROV,
Konstitutsiyaviy sud raisi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori

Boshlanishi 1-betda

Darhaqiqat, bu jarayonlarning barchasi Konstitutsiyada belgilangan asosiy prinsiplarga tayangan holda amalga oshirildi. Ushbu saylov natijasi bo‘yicha yangi parlament shakllandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilish maqsadlaridan biri fuqarolarning munosib hayot kechirishi, ko‘pmillatli mamlakatimiz aholisi farovonligini ta’minlashdan iborat. Shunga ko‘ra, Konstitutsiyamizda O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi maqomi mustahkamlab qo‘yildi. Ijtimoiy davlat barchaga ijtimoiy kelib chiqishidan qati nazar teng imkoniyatlar, munosib hayot kechirish uchun teng shart-sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirishni nazarda tutadi.

Taraqqiyot strategiyasida inson qadri ustuvorligi hamda inson huquqlarini ta’minlashda “hech kimni e’tibordan chetda qoldirmaslik” tamoyiliga asoslangan. Aholining aksariyatini ko‘p bolali oilalar tashkil etishi, mamlakatda yoshlar umumiy aholining 60 foizidan iboratligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, bu muhim ijtimoiy ahamiyatga ega masala ekanini tasavvur qilish qiyin emas.

O‘zbekiston demokratik huquqiy davlat sifatida mamlakatda inson huquqlarini ta’minlash, qonun ustuvorligini qaror toptirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, Prezidentimiz “qonun ustuvorligi indeksi” yuqori darajada bo‘lgan davlatlar qatoridan joy olish yurtimizning asosiy vazifalaridan ekanini ta’kidlagan edi.

Bu boradagi sa’y-harakatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida Konstitutsiyada insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning eng muhim vazifalaridan biri etib belgilandi.

Shuningdek, inson huquqlarini himoya qilishga alohida ustuvorlik berildi. Natijada yangilangan Konstitutsiyamizda inson huquqlari va erkinliklariga oid qoidalar qariyb ikki barobar ko‘payib, uning konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari aniq mustahkamlab qo‘yildi.

Davlat organlari tomonidan fuqaroga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Mazkur prinsip huquqni muhofaza qiluvchi organlarda, tergov va tezkor qidiruv faoliyatida suiiste’molchilikka yo‘l qo‘yilishining oldini olishga zamin yaratadi.

Inson va davlat organlari o‘rtasida yuzaga kelgan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi, huquqiy ta’sir choralari maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo‘lishi kerak. Mazkur konstitutsiyaviy prinsiplar O‘zbekistonning ijtimoiy va huquqiy davlat sifatidagi xususiyatlaridan kelib chiqadi va inson manfaatlari ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Inson huquqlariga oid xalqaro huquqiy hujjatlarda davlatlarga o‘z milliy qonunchiligida qiynoqlar va barcha turdagi zo‘ravonliklarni taqiqlash majburiyati yuklanadi. Mazkur xalqaro norma O‘zbekiston Konstitutsiyasida o‘z ifodasini topgan, qiynoqlar, zo‘ravonlik va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazolar taqiqlangan. Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas.

Aybsizlik prezumpsiyasi inson huquqlari sohasidagi xalqaro standart sifatida e’tirof etiladi. Mazkur xalqaro huquqiy norma Konstitutsiyamizda to‘liq o‘z aksini topgan, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Bu konstitutsiyaviy normani amaliyotda to‘liq joriy etish, inson huquqlarini sud orqali himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida 2024-yil 10-iyunda Prezidentimizning “Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.



Farmon bilan inson huquqlarini himoya qilish tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklari himoyasi kafolatlarini kuchaytirish, ishni sudga qadar yuritishda taraflar tengligi va tortishuvi prinsipini amalda ta’minlash, shuningdek, tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklari samarali himoya qilinishiga erishish maqsadida 2025-yil 1-yanvardan sud tizimida tergov sudyalari instituti joriy etilmoqda.

Bugungi kunda Sudyalar oliy kengashi tomonidan Oliy sud bilan hamkorlikda tergov sudyalari korpusini shakllantirish, ushbu mas’uliyatli vazifaga yetarlicha bilim va tajribaga ega shaxslarni tanlab olish, ularning malakasini oshirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Sud-huquq tizimi bilan birinchi marta to‘qnash kelgan shaxs o‘z huquqlarini yetarlicha bilmasligi tufayli muayyan muammolarga duch kelishi, huquq va erkinliklari cheklanishiga sababchi bo‘lib qolishi mumkin. Konstitutsiyada aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, fuqaroning foydasiga hal qilinishi belgilab qo‘yilgan.

Konstitutsiyamizda odil sudlovga oid xalqaro huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarda “Miranda qoidasi” sifatida tilga olinadigan qoida, ya’ni shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi mustahkamlandi.

Hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas. Shuningdek, shaxsning sudlanganligi bilan bog‘liq huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lmaydi. Mazkur normaning ahamiyati shundaki, yaqin o‘tmishimizda davlat idoralarida ishlaydigan fuqaro, garchi u tajribali va namunali xodim bo‘lgan taqdirda ham biror qarindoshining xatosi sababli ishdan ketishga majbur bo‘lgan. Bu o‘ta adolatsiz qonun normasi bekor qilindi.

Mamlakatimizdagi davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri jamiyatda millatlararo, dinlararo totuvlikni mustahkamlashdan iborat. Fuqarolarning vijdon erkinligi sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlash, jamiyatda diniy bag‘rikenglik va dinlararo do‘stlik-hamkorlik g‘oyalarini yanada mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch-totuv, hamjihat bo‘lib yashamoqda. Bu hamjihatlikning huquqiy kafolati Bosh qonunimizda mustahkamlangan, ya’ni barcha fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lishi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi Konstitutsiya bilan kafolatlangan.

Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi. Majburiy mehnatni taqiqlash bo‘yicha kafolatlar kuchaytirilib, majburiy mehnatga barham berildi. Majburiy mehnat hamda bolalar mehnatidan foydalanishga chek qo‘yildi.

Fuqarolar nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro huquqiy normalar asosida o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya fuqarolarga inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat qilish huquqini beradi. Bu mutlaqo yangi darajadagi inson huquqlarini himoya qilish mexanizmi bo‘lib, fuqarolar xalqaro huquqiy munosabatlar ishtirokchisiga aylanayotganini anglatadi.

Prezidentimiz Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 27 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqida “**Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun biz hayotimizning barcha jabhalarida konstitutsiyaviy nazoratni kuchaytirishimiz zarur”,** deb ta’kidlagan edi. Konstitutsiyaviy nazoratni kuchaytirish Konstitutsiya va qonun ustuvorligi prinsipini ta’minlash va pirovard natijada yurtimizda konstitutsiyaviy qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Konstitutsiya fuqarolarga konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishi huquqini beradi. Fuqarolar tomonidan Konstitutsiyaviy sudga shikoyat bilan murojaat qilish huquqining mohiyati huquq va erkinliklarini buzayotgan qonunning Konstitutsiya normalariga mosligini tekshirish talabida namoyon bo‘ladi. Ayni paytda e’tirof etish joizki, konstitutsiyaviy shikoyat institutining ahamiyati faqat fuqarolarni konstitutsiyaviy odil sudlovga bo‘lgan huquqlarini ta’minlashdangina iborat emas, balki qonunlarning sifati va samaradorligini oshirish, ularning konstitutsiyaviyligini ta’minlash, davlat va jamiyat hayotini yanada demokratlashtirishga zamin yaratadi. Shubhasiz, mazkur yangiliklar inson huquqlarini himoya qilish tizimida Konstitutsiyaviy sudning rolini yanada oshiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoyalashga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaviy shikoyat instituti joriy etilishi barchaning qonun oldida tengligi, hech kim qonundan ustun emasligi, fuqarolarga qonunlarga itoatkorlik va hurmat ruhini singdirish, huquqiy madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, konstitutsiyaviy shikoyat instituti muhim demokratik institut sifatida O‘zbekistonning “Huquq ustuvorligi indeksi”, “Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi” kabi xalqaro nufuzli reytinglarda o‘rni yaxshilanishiga imkon beradi.

O‘zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlar xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak baholanmoqda. Barcha sohalardagi islohotlar natijasida mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o‘rni va mavqei ortib bormoqda, inson huquq va erkinliklari kafolatlangan davlat sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston vakili birinchi marta BMTning Inson huquqlari kengashi a’zoligiga saylandi. Bu yangilikni davlatimiz rahbari so‘nggi yillarda yurtimizda demokratik islohotlarni amalga oshirish, jumladan, inson huquq va erkinliklari hamda qonun ustuvorligini ta’minlash borasida olib borayotgan amaliy faoliyatimizning jahon hamjamiyati tomonidan e’tirofi sifatida baholadi.

Buyuk bobomiz Amir Temurning “Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo‘ladi” degan so‘zlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Darhaqiqat, davlat boshqaruvining asosiy prinsiplaridan biri bo‘lgan qonuniylik prinsipini qaror toptirish kundalik hayotimiz zaruriyatiga aylanishi lozim.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Qaror va ijro



SAYYOHLIK YO‘NALISHIDAGI ENG YIRIK LOYIHA

Qashqadaryoda umummavsumiy kurort majmuasi quriladi

Boshlanishi 1-betda

Huv tepalikda miltirab, osilib turgan yaxmalaklar quyosh taftiga chiday olmay ko‘z yosh to‘kadi. Har tomchi qo‘shilib, irmoq bo‘lib pastga quyiladi. Jilg‘alarning mayin qo‘shig‘i mehmonga kelgan kishining ko‘ngil torlarini chertib o‘tadi.

Bu yerda tong ham o‘zgacha otadi. Xullas, ming bor eshitgandan ko‘ra, bir borib ko‘rgan afzal. Avvallari qanchalik havas qilmang, bu manzilga borishning o‘zi bo‘lmasdi. Yo‘lovchining kamida ikki-uch kuni yo‘lda o‘tib ketardi. Shu bois, har kim ham bu tomonlarga borishga oshiqavermasdi. Bugun esa aynan sayyohlar uchun qulayliklar yaratilishi borasida katta ishlarga qo‘l urilmoqda.

Shahrisabz tumanidagi G‘elon qishlog‘idan bir oz tepalikdagi Hazrati Sulton va unga yondosh boshqa cho‘qqilarni doim muzliklar qoplab turadi. To‘rt faslda ham bu joyda iqlim bir xil. Shuningdek, tog‘ adirliklarida deyarli yilning sakkiz oyida qor saqlanadi. Bu esa qishki sport turlarini, ayniqsa, tog‘ chang‘isi sportini rivojlantirish uchun qulay. Lekin bu imkoniyatdan shu paytga qadar foydalanilmasdi. Endi esa shu imkoniyatlar ishga solinib, hududda turizm xizmatlari yo‘lga qo‘yiladi. Prezidentimizning joriy yil 5-dekabrdagi “G‘elon turistik-rekreatsion zonasini va xalqaro umummavsumiy kurortni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ham aynan G‘elon qishlog‘ida qator turizm obyektlarini bunyod etishga asos bo‘ladi.

Jumladan, 2023-yil 4-6-oktabr kunlari Qozon shahrida bo‘lib o‘tgan III hududlararo hamkorlik forumi doirasida rossiyalik hamkorlar bilan Shahrisabz tumanida “G‘elon xalqaro umummavsumiy kurort majmuasini tashkil etish” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha kelishuvga erishilgandi. Shuningdek, loyiha doirasida investor tomonidan dastlabki baholash bo‘yicha jami 300 million dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya jalb etilishi hamda loyiha 2024-2030-yillar davomida uch bosqichda amalga oshirilishi, bunda 2027-yil 1-yanvarga qadar birinchi bosqichda investor tomonidan 100 million dollar miqdorida investitsiya kiritilishi rejalashtirilgandi. Bu esa yuqoridagi qaror bilan tasdiqlandi.

Shu bilan birga, mazkur hujjatga ko‘ra, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Qashqadaryo viloyati hokimligi Shahrisabz tumanida umumiy maydoni 2,9 ming gektar bo‘lgan hududda “G‘elon” turistik-rekreatsion zonasini tashkil etadigan hamda Qashqadaryo viloyati hokimligi huzurida davlat muassasasi shaklidagi “G‘elon” turistik-rekreatsion zonasi direksiyasi tuziladigan bo‘ldi.

Turistik zona hududida zamonaviy mehmonxona majmualari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va turistik ahamiyatdagi boshqa obyektlarni hamda muhandislik infratuzilmalarini barpo etish to‘g‘risidagi takliflarga rozilik berildi.

— Davlatimiz rahbari qaroriga ko‘ra, “G‘elon” turistik-rekreatsion zonasida “G‘elon” xalqaro umummavsumiy kurort majmuasi tashkil etilishi natijasida kelgusida bir vaqtning o‘zida 7 ming sayyohni qabul qilish imkoniyati yaratiladi, — deydi Qashqadaryo viloyati Turizm boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari G‘olib Allaberdiyev. — Shuningdek, loyiha doirasida dastlabki bosqichda G‘elon va Sarchashma mahallalari hududida 5,9 kilometr gondolali dor yo‘li, 4 ta tog‘ chang‘isi yo‘li, 35 ta villa, 1 ta tashrif markazi, to‘rt yulduzli mehmonxona, 5 qavatli avtoturargoh, restoranlar, vertolyot maydonchasi hamda bolalar shaharchasi va daryo bo‘ylab yo‘lakchalar barpo etiladi.

Keyingi bosqichlarda esa 3,8 kilometr o‘rindiqli va 2,9 kilometr gondolali dor yo‘li, 21 ta tog‘ chang‘isi yo‘li hamda 3 ta mehmonxona, 2 ta restoran, 75 ta villa, SPA kompleks, kuzatuv minorasi, attraksionlar quriladi.

2025-yilda qishki sport turlarini rivojlantirish maqsadida tog‘ chang‘isi va snoubord maktabi hamda tog‘ chang‘isi va snoubord bo‘yicha olimpiya zaxiralari maktabi barpo etiladi.

Turistik zonadagi loyihalar, asosan, Rossiyaning “Kazanskiye kanatniye dorogi” va “Snou servis” kompaniyalari ta’sischiligida tashkil etilgan “All season resort Gelon” xorijiy kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladi. Ayni paytda xorijlik investor loyihaning master rejasini ishlab chiqqan bo‘lib, bugungi kunda bosh reja ustida ishlamoqda. Tez orada qurilish boshlab yuboriladi.

Qarorga asosan, Qashqadaryo viloyati hokimligi Kadastr agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda turistik zona hududidagi yer uchastkalari, bino va inshootlar hamda daraxt va butalar to‘liq xatlovdan o‘tkazilishi, mavjud daraxt va butalar belgilangan tartibda muhofazaga olinishi qayd etilgan. Shu bilan birga, uch oy muddatda yer uchastkalari olib qo‘yilishi va bino hamda inshootlar buzilishi natijasida mulkdorlarga yetkaziladigan zarar miqdoriga aniqlik kiritilishi, baholash ishlarini tashkil etish uchun zarur hujjatlar, shu jumladan, yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganini tasdiqlovchi hujjatlar to‘plami tayyorlanishi, baholovchi tashkilotlar jalb qilinishi va baholash to‘g‘risidagi hisobotlar ekspertizadan o‘tkazilishini, yer uchastkalari olib qo‘yilishidan avval mulkdorlarga kompensatsiya to‘lovlari to‘liq hajmda to‘lab berilishini ta’minlash ko‘rsatib o‘tilgan.

Bunda, asosan, yer uchastkalari egalariga yetkazilgan zarar qonunchilikda belgilangan tartibda qoplab beriladi. Turistik zona hududida amalga oshiriladigan loyihalar uchun ajratiladigan yer uchastkalarida qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliklari o‘rnini qoplash bo‘yicha kompensatsiya to‘lovlari loyiha tashabbuskorlari tomonidan qoplab berilishi ham aniq belgilangan.

— Yirik loyihaning amalga oshishi natijasida hudud aholisining ish bilan ta’minlanish darajasi oshadi, — deydi G‘.Allaberdiyev. — Bundan tashqari, mahallalar obodligini amalga oshirish ham rejaga kiritilgan. Xizmatlar sohasi rivojlantiriladi. Avtomobil yo‘llari yaxshilanadi. Jumladan, umumiy uzunligi 57 kilometr bo‘lgan 1 ta umumfoydalanuv va 2 ta ichki xo‘jalik yo‘llari 4-toifadan 3-toifaga tushiriladi.

Umumiy uzunligi 33 kilometr bo‘lgan Hisorak — G‘elon, Hisorak — Sarchashma avtomobil yo‘lini ikki tasmali qilib, Chiroqchi — Sho‘rquduq avtomobil yo‘lining 30 kilometr qismini uchinchi toifadagi yo‘l darajasigacha yetkazish bo‘yicha qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshiriladi. Miraki — Hisorak avtomobil yo‘li ikki tasmali qilib uchinchi toifadagi yo‘l darajasigacha yetkaziladi.

Yana bir muhim jihati, G‘elonga “Yashil mahalla” maqomi beriladi. Buning uchun ekologik talablarga javob beradigan harakatlanish vositalarini yo‘lga qo‘yishga e’tibor qaratiladi. Kichik GESlar bunyod etiladi. Mahalliy aholi daromadini oshirish uchun turli maishiy xizmat shoxobchalari, umumiy ovqatlanish, savdo, ko‘ngilochar, hunarmandlik obyektlari barpo etiladi.

Sirasini aytganda, yuqoridagi qarorga asosan, tog‘li hudud obodligiga e’tibor qaratiladi. Shu bilan birga, foydalanilmay yotgan imkoniyatlar ishga tushib, aholining bandligi ta’minlanadi. Viloyatga xorijlik sayyohlar oqimi ortib, turizm sohasi yanada rivoj topadi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

DAVR NAFASI

3

2024-yil 12-dekabr, 252-son

Kelgusi yili 4 million 800 ming gektarda ekinlar yetishtirish mo‘ljallangan bo‘lsa, shundan 2 million gektardan ziyodiga meva-sabzavot, kartoshka, dukkakli va poliz mahsulotlari ekiladi. Ularning dalalarda joylashtirilishi va hosilning zaxiraga jamlanishi monitoring qilib boriladi. Birlamchi zarur bo‘lgan 10 turdagi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining tizimli hisob-kitobi yuritiladi.

2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

O‘ZGARAYOTGAN SHAROIT

zimmamizga katta vazifa va mas’uliyat yuklamoqda





Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Betonlangan kanal ham suv tejaydi, ham energiya hosil qiladi

Hayotimizda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan suvga munosabatni o‘zgartirish nafaqat uni tejash, balki boshqa ko‘plab global muammolarga yechim bo‘lishi mumkin. Vaholanki, ma’lumotlarga ko‘ra, bugun 80 foizga yaqin oqova suv tozalanmasdan daryo va dengizlarga, hatto chuchuk suv havzalariga oqizilmoqda. Bu esa shundoq ham cheklangan chuchuk suv manbalari qisqarishiga olib kelmoqda. Dunyo aholisining 29 foizi toza suv yetishmasligidan aziyat chekayotgani ham tashvishli hol. Shularni inobatga olib, suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish hayotni yaxshilash, uzoq umr ko‘rish va boshqa tabiiy resurslarni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Joriy yil 7-noyabr kuni davlatimiz rahbari raisligida qishloq xo‘jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida 550 kilometr kanal va ariqlar betonlangani evaziga 200 ming gektarda suv ta’minoti yaxshilanib, 450 million kub metr suv iqtisod qilingani qayd etildi.

Joylarda hali betonlash zarur bo‘lgan 18 ming kilometr magistral va 94 ming kilometr ichki kanallar bor. Endi savol tug‘iladi: nega O‘zbekistonda keyingi yillarda suv masalasiga alohida e’tibor qaratilyapti? Deyarli har bir yig‘ilish, hududlarga tashrif asnosida davlatimiz rahbari suv hayot-mamot masalamiz ekanini qayta-qayta ta’kidlayapti? Chunki suv taqchilligi dunyo hamjamiyatini birdek o‘ylantirmoqda. Jiddiy tashvishga solmoqda. Muammo tobora keskin tus olmoqda. Bunday sharoitda, tabiiyki, mamlakat kelajagi va xalqi farovonligini o‘ylagan rahbar bezovta bo‘ladi. Muammoga yechim topishga harakat qiladi.

Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 20-noyabrdagi yig‘ilishida yana bir bor suv tejamkorligiga to‘xtalgani ushbu masala O‘zbekistonda doimiy nazoratda va e’tiborda ekanini anglatadi. Davlatimiz rahbari kelgusi yilda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yer maydonini 2 karra kengaytirish, buning uchun 5 trillion so‘m, kanallarni betonlash uchun 800 milliard so‘m yo‘naltirilishini aytdi.

— Qurg‘oqchil mintaqada, okean va dengizlardan ancha olisda joylashgan O‘zbekiston uchun suvning ahamiyati benihoya katta, — deydi Qishloq xo‘jaligi vazirligining zamonaviy sug‘orish agrotexnologiyalarini joriy qilish boshqarmasi boshlig‘i Farhod Qo‘ziyev. — Shu bois, yurtimizda bu boradagi ishlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Amaliy harakatlar ko‘lami kengaymoqda. Xususan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida joriy yilda kanallarni rekonstruksiya qilish doirasida kamida 1,5 ming kilometr uzunlikdagi yirik kanallarni betonlashtirish ishlarini yakunlash belgilangan. Bu kabi ishlar hayotiy zarurat va chora. Chunki so‘nggi yillarda yurtimizda suv taqchilligi tez-tez sezilmoqda. 2000-yilga qadar har 6-8 yilda suv taqchilligi kuzatilgan bo‘lsa, oxirgi vaqtlarda bu holat har 3-4 yilga to‘g‘ri kelyapti. Suv resurslari tejalmasa, oqar suv oqilona boshqarilmasa, yana o‘n-o‘n besh yildan keyin bizda suv taqchilligi yanada o‘tkir muammoga aylanadi. Bundan, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi jiddiy zarar ko‘radi. Chunki yurtimizda suv eng ko‘p talab qilinadigan soha shu. Jami ishlatiladigan suvning 90 foizi qishloq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi

Davlatimiz rahbari o‘tgan yil 29-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda ham bu borada favqulodda ish uslubiga o‘tilishini ta’kidlagan, bunda kanal va ariqlarni betonlash birinchi muhim vazifa etib belgilangan edi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, betonlanmagan irrigatsiya tarmoqlarida yiliga o‘rtacha 14 milliard kub metr yoki 36 foiz suv hech qanday iqtisodiy samarasiz isrof bo‘ladi. Umuman, suv yo‘qotishlari oqibatida iqtisodiyotimizda yiliga 5 milliard dollar daromad boy berilyapti. Shu bois, 2025-yildan boshlab kamida 2 ming kilometrdan kanallarni betonlashga o‘tiladi.

Suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, joriy yilda qilingan ishlar tufayli betonlangan kanallarda suvning filtratsiyasi keskin kamayib, boshqarish tizimi takomillashdi, 300 ming gektar maydonning suv ta’minoti yaxshilandi hamda kanallarda yiliga o‘rtacha 450 million kub metr suv yo‘qotilishi kamayishiga erishilgan.

Misol uchun, 2024-yilda Olot tumanidagi 5 ta kanalning 21 kilometr qismi betonlanishi bilan suvning yerga shimilib ketishi keskin kamayib, 11,2 ming gektar yerning suv ta’minoti yaxshilangan. Vaholanki, ushbu yerlarning 3 ming gektariga suv yetib borishi juda qiyin edi.

Jizzax viloyatidagi “DM-1”, “DM-2” va “DM-3” kanallarining 29 kilometri betonlashtirilishi hisobiga suv oqimi tezlashdi. Avval 3-4 kunda yetib borgan bo‘lsa, endi bir kecha-kunduzda oxirgi quloqdagi fermer ekinini sug‘orishga kirishyapti. Suvning tez kelishi sug‘orish mavsumida nihoyatda muhim.

Ayrimlar kanallarni betonlash juda qimmat, katta mablag‘ talab etiladigan jarayon deydi. Lekin buning ortidan erishiladigan natijani ko‘rgach, bu xulosadan qaytish mumkin. Oziq-ovqat xavfsizligi masalasi tobora dolzarb bo‘lib borayotgan hozirgi sharoitda esa uning ahamiyati yanada ortaveradi.

Betonlangan kanallarda suv oqimining tezlashishi kichik GESlar qurib, elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi. Shu kunlarda Navoiy viloyatida 11 megavattli 148 ta shunday stansiya qurish ishlari boshlangan. Umuman, mamlakatimizda 2 mingta mikro GES qurib, yiliga qo‘shimcha 600 million kilovatt elektr olish mumkin. Bu “yashil” iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini “yashil” energiyadan foydalanib, sifatli va tabiiy mahsulot yetishtirishda ayni muddao. Bundan tashqari, ushbu energiyani aholiga sotish ham mumkin. Mana sizga qishloq xo‘jaligida bir qarashda sohaga daxldor bo‘lmagan, lekin ayni paytda hayotiy zaruratga aylanib borayotgan tarmoq orqali daromad topishning qo‘shimcha manbai.



> **2017-YILGA QADAR SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH, KATTA MAYDONLARGA O‘RNATISH BILAN BOG‘LIQ QATOR MUAMMOLAR SAQLANIB KELAYOTGAN EDI. BIRINCHIDAN, TOMCHILATIB SUG‘ORISH TIZIMI JIHOZ VA USKUNALARI NARXI ANCHA QIMMAT BO‘LIB, UNI XARID QILISHGA HAMMA DEHQON VA FERMERLARNING HAM QURBI YETMASDI.**

“Suvqurilishinvest” davlat muassasalari buyurtmachiligida 2025-yilda sug‘orish tarmoqlarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha jami 75 ta obyektga 800 milliard so‘m yo‘naltirilishi rejalashtirilgan. Ushbu mablag‘ hisobidan 570,4 kilometr kanallar, 21 kilometr lotok va 45,3 kilometr yopiq quvurli sug‘orish tarmog‘i rekonstruksiya qilinadi.

Betonlangan kanallarda suvning filtrasiyasi keskin kamayib, suvni boshqarish tizimi tubdan takomillashadi, 250 ming gektar maydonning suv ta’minoti yaxshilanadi. Kanallarda yiliga o‘rtacha 450 million kub metr suv yo‘qotilishining oldi olinadi.

Umuman, joriy yilda kanallarni betonlash, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, sohani raqamlashtirish, suvni samarali boshqarish hisobiga 8 milliard kub metr suv iqtisod qilinishi ko‘zda tutilgan.

Yangi tajribalar imkoniyatni yanada kengaytiradi

Hisob-kitoblarga ko‘ra, global iqlim o‘zgarishi natijasida so‘nggi 50-60 yilda Markaziy Osiyoda muzliklar maydoni taxminan 30 foiz qisqargan. 2050-yilgacha Sirdaryo havzasida suv resurslari 5 foiz, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Uzoq yillar yonimizdan oqqan suvni qadrlamadik. Ammo ana shu suvdek tez oqib ketayotgan vaqt tizginida yillar o‘tib, xavotirli raqamlar oshib boraverdi.

Shu bois, O‘zbekistonda suv bilan bog‘liq muammolarning oldini olish, suv resurslaridan samarali foydalanish, ularni boshqarish tizimini takomillashtirish, obyektlarni modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Uzoq yillar sohada suvdan samarali foydalanish, hisobini yuritish, irrigatsiya tarmoqlarida tejamkor yangi texnologiyalarni qo‘llash kabi chora-tadbirlarni ko‘rish zarurati mavjud edi.

2017-yilga qadar suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llash, katta maydonlarga o‘rnatish bilan bog‘liq qator muammolar saqlanib kelayotgan edi.

Birinchidan, tomchilatib sug‘orish tizimi jihoz va uskunalari narxi ancha qimmat bo‘lib, uni xarid qilishga hamma dehqon va fermerlarning ham qurbi yetmasdi.

Ikkinchidan, bunday jihozlarning ko‘p qismi xorijdan olib kelinar, ishlab chiqaruvchi tashkilotlar uchun esa qo‘shimcha imtiyozlar berilmagandi. Qolaversa, dehqonu fermerlarimizda tomchilatib sug‘orish tizimini joriy etish bilan bog‘liq bilim va ko‘nikma ham yetishmas edi.

Bugunga kelib, O‘zbekiston bu borada o‘ziga xos tajribaga ega davlatga aylandi. Suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha Markaziy Osiyoda birinchi, MDH davlatlari orasida ikkinchi, Osiyoda to‘rtinchi va dunyoda 13-o‘rinda e’tirof etilishi shunchaki gap emas. Buni tizim faoliyatini yanada isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning, uzoqni ko‘zlab yuritilayotgan siyosatning samarali mevasi deyish mumkin. Lekin bu bilan to‘xtab qolinayotgani yo‘q. Bu mumkin ham emas. Sohaga yangi innovatsion texnologiyalar, ilg‘or tajribalar tatbiq etilyapti, ommalashtirilyapti.

Global iqlim o‘zgarishi sharoitida nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda suv taqchilligi kuzatilayotgani bor gap. Respublikamiz bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun har yili o‘rtacha 40-41 milliard kub metr suv sarflanmoqda. Shu sababli sohaga xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini joriy qilish orqali qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan suv resurslari hisobini real vaqt rejimida yuritish hamda boshqaruvini raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz 7-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda aynan bu boradagi yangiliklar, erishilayotgan ijobiy natijalar xususida gapirib, Do‘stlik tumanini misol qilib keltirdi. Gap shundaki, Do‘stlik tumanida xitoylik investorlar bilan hamkorlikda suv boshqaruvi “aqlli” tizimga o‘tkazilgan. Hududda jami 115,8 kilometrli sug‘orish tarmog‘i mavjud bo‘lib, 33 ming 458 gektar ekin maydoniga xizmat qiladi. Ushbu maydonni sug‘orish uchun har yili o‘rtacha 275 million kub metr suv sarflanadi. Ana shu suv sarfi avtomatik tarzda masofadan boshqarilmoqda. Buning ortidan qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan suv resurslari hisobi shaffof yuritiladi. Ekinlarning suvga talabidan kelib chiqib, iste’molchilar o‘rtasida teng taqsimlanadi, fermer, dehqon xo‘jaliklari va boshqa iste’molchilar tomonidan foydalanilgan suv resurslari uchun shaffof soliq bazasi shakllantiriladi. Tumanda suv resurslarini boshqarish to‘liq xususiy sektorga o‘tkazilib, davlat byudjetidan har yili sug‘orish tarmoqlari ekspluatatsiyasiga ketadigan mablag‘ iqtisod qilinadi. Nafaqat mablag‘, balki suv sarfi 25 foizgacha tejaladi. Ushbu tajriba yurtimizning boshqa hududlarida ham qo‘llanadi.



Bu bir loyiha, lekin davr taqozo etayotgan tajriba. Birgina shu tajribaning o‘zidan ko‘p narsani anglab olish qiyin emas. Avvalo, bu endi avvalgidek ariqlarimiz, kanallarimiz suvga to‘lib oqmasligi mumkin, degani. Bunga bugungi ekologik, tabiiy sharoit yo‘l qo‘ymaydi. Suvni behuda oqizib qo‘yish ham bo‘lmaydi.

Talablardan yana biri — oziq-ovqat xavfsizligi

Tomchilatib sug‘orish, kanallarni betonlash va ishlov berishning zamonaviy usullari davr talabi. Bu 15-20 foiz suvni tejash va hosildorlikni 1,5 barobar oshirish imkonini beradi. Yangi yer maydonlarining qishloq xo‘jaligida foydalanish uchun kiritilayotgani, intensiv bog‘ va tokzorlar barpo etilayotgani mahsulotlar yetishtirish imkoniyatini oshirmoqda. Shu bois, yaqin yillarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barobar, eksportni 5 barobar ko‘paytirishni ko‘zlayapmiz.

Davlatimiz rahbari Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 20-noyabrdagi yig‘ilishida qayd etganidek, oldimizda bu borada qilinadigan ishlar ham talaygina. Aholi soni ko‘payib borayotgan hozirgi sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash eng dolzarb vazifalardan bo‘lib qolaveradi.

Suv resurslarini barqaror boshqarish qishloq xo‘jaligi rivoji kalitidir. Mamlakat suv resurslarining salmoqli qismi transchegaraviy daryolar hisobiga to‘g‘ri keladi. Bu esa suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va zamonaviy sug‘orish texnologiyalariga sarmoya kiritishning ahamiyatini oshiradi.

Qishloq xo‘jaligi uchun yaroqli yer cheklangani esa alohida masala. Mamlakatimiz hududining bor-yo‘g‘i 10 foizga yaqini haydaladigan yerdan iborat. Bu aholi jon boshiga taxminan 0,12 gektarni tashkil etadi. Shu bois, atrof-muhitga yetkazilgan katta zarar, tuproq tarkibining buzilishi va biologik xilma-xillik yo‘qolishi kabi holatlardan to‘g‘ri xulosa chiqarib ishlash vaqti allaqachon yetib kelgan.

Prezidentimiz Toshkent shahri atrofida “yashil belbog‘” barpo etish loyihasi doirasida daraxt ekish tadbirida ishtirok etish chog‘ida “Xalqimiz tabiatni “ona” deydi, yerni, suvni e’zozlaydi. Buning zamiridagi haqiqat hozirgi ekologik muammolar ta’sirida yaqqol namoyon bo‘lyapti. Shuning uchun “Yashil makon” loyihasini boshladik. Kelgusi yil nomini ham atrof-muhitni asrash masalasiga bag‘ishladik” degani va bu borada shaxsan o‘zi tashabbus ko‘rsatgani barchani tabiat ne’matlarini asrab-avaylashga, befarq bo‘lmaslikka undaydi.

Oziq-ovqat xavfsizligi odamlarni qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlashga bog‘liq. Bu barqaror, adolatli va bardoshli tizimlarni yaratish, degani. Yer degradatsiyasi, suv taqchilligi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi, global va tabiiy muammolar esa ishlarga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bugun butun dunyo, jumladan, yurtimizda ham sodir bo‘layotgan iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining tobora tanqislashuvi, cho‘llashuv darajasining ortishi ko‘p tarmoqli agrar soha mehnatkashlari va olimlari oldiga ko‘plab muammolar yechimini topish masalasini qo‘ymoqda.

Davlatimiz rahbari 25-noyabr kuni oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, paxta va g‘alla hosildorligini oshirish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishish chog‘ida ushbu masalaga yana bir bor e’tibor qaratdi. Yer va suv manbalari esa cheklangan. Shu bois, ichki bozor barqarorligini omilkorlik va hosildorlik orqali ta’minlash mumkinligi aytildi.

Kelgusi yili 4 million 800 ming gektarda ekinlar yetishtirish mo‘ljallangan bo‘lsa, shundan 2 million gektardan ziyodiga meva-sabzavot, kartoshka, dukkakli va poliz mahsulotlari ekiladi. Ularning dalalarda joylashtirilishi va hosilning zaxiraga jamlanishi monitoring qilib boriladi. Birlamchi zarur bo‘lgan 10 turdagi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining tizimli hisob-kitobi yuritiladi.

Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi farovonlik kafolati, iqtisodiyot barqarorligi asosi. O‘zbekistonda tabiiy resurslar, jumladan, suv va yerdan unumli, oqilona foydalanishga qaratilayotgan e’tibor bunga puxta zamin yaratadi. Bo‘lmasa, o‘zgarayotgan iqlim, tabiat bilan murosa qilishning boshqa yo‘li yo‘q.

Joriy yilgi tantanalar ham ko‘tarinki kayfiyatda o‘tdi. Bayramni qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida mehnat qilayotgan soha vakillari munosib mehnat zafari bilan kutib oldi. Bu davlatimiz rahbarining biz, qishloq xo‘jaligi xodimlariga yo‘llagan tabrigida ham alohida ta’kidlandi.

Farovonlik



TO‘KINLIK ORTIDA FIDOYI MEHNAT TURIBDI

Gohida to‘y-hashamlarda, fayzli kunlarda to‘kin dasturxon atrofida o‘tirsak, ko‘nglimiz yayraydi. Sarxil mevaga ko‘zimiz tushib, havasimiz ortadi. Bugun bunday manzarani yilning istalgan kunida ko‘rishingiz mumkin. Ilgari qish faslida bozordan bir boshgina uzum topish mushkul edi. Bugun-chi, eh-he, o‘zimiznikidan tortib, sitrus mevagacha bisyor. Hozir sitrus mevalar xorijda emas, yurtimizda yetishtirilmoqda. Narxi ham arzon. Ko‘nglingiz qaysi birini tusasa, olib iste’mol qilaverasiz. Bunday to‘kinlik ortida fidoyi insonlarning mehnati turganini unutmaslik lozim.



Shodiyor XO‘JANAZAROV,
mehnat faxriysi,
“Do‘stlik” ordeni sohibi

Sakson yoshga kirdim. Umrimning asosiy qismi dalada o‘tmoqda. Hozir ham qishloq xo‘jaligi bilan mashg‘ulman. Sohaning tajribali vakillari bilan suhbatlashaman. Ulardan nimadir o‘rganaman. O‘z tajribamdan kelib chiqib, nimadir maslahat beraman. Ozgina nafim tegsa, shundan mamnun bo‘laman. Ko‘p yillik faoliyatim tahliliga e’tibor qaratsam, tizimda faqat o‘zgarishlarni kuzatish mumkin.

Eng asosiysi, keyingi yillarda bu yo‘nalishda katta o‘zgarishlar sari qadam tashlanmoqda. Ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Muhimi, yangi texnologiyalar joriy etilmoqda. Buning natijasida qayta ishlash yo‘lga qo‘yildi. Avvallari birgina paxtani qayta ishlab, tumanning o‘zida tayyor yoki yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarilishi hech kimning xayoliga kelmasdi. Hozir bir tumanda kamida ikki-uchta qayta ishlovchi korxona faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligida suv va yer resurslaridan oqilona foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, cho‘llanish, yerning sho‘rlanishi va degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproq unumdorligini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Suv tejovchi texnologiyalar joriy etilib, katta miqdordagi suv iqtisod qilinmoqda. Tizimdagi keng ko‘lamli islohotlar samara berib, yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligi va narxlar barqarorligi ta’minlanmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2017-yildan boshlab har yili dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni sifatida nishonlab kelinmoqda.

Joriy yilgi tantanalar ham ko‘tarinki kayfiyatda o‘tdi. Bayramni qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida mehnat qilayotgan soha vakillari munosib mehnat zafari bilan kutib oldi. Bu davlatimiz rahbarining biz, qishloq xo‘jaligi xodimlariga yo‘llagan tabrigida ham alohida ta’kidlandi. Shu bilan birga, oldimizda turgan vazifalar ham kam emas. Ularni amalga oshirishda esa yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlar katta ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyati

Agrotarmoq

“1996-yilda “Do‘stlik” agrofirmasi nomini olgan xo‘jalikda bosqichma-bosqich mahsulot ishlab chiqarish ko‘lami va turlari kengaytirib borildi. 2004-yilda bir kunda 5 tonna sutni qayta ishlash quvvatiga ega sex qurilib, ishga tushirildi. Hozirgi kunda bu sexda yiliga 1000 tonnadan ortiq 9 turdagi tayyor sut mahsuloti ishlab chiqarilmoqda. Muassasadagi parrandachilik fermasida esa yiliga 8 million dona tuxum olinmoqda.”



“DO‘STLIK”NING 65 YILLIK YO‘LI

Yetishtirishdan qayta ishlashgacha bo‘lgan yagona tizim

Navoiy viloyatida tog‘-kon sanoati rivojlangan. Mamlakatimizning eng qudratli sanoat korxonalaridan biri bo‘lmish Navoiy kon-metallurgiya kombinati va uning tarmoqlari mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojida muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda ushbu yirik quvvatli korxonalarda minglab ishchi-xodim mehnat qiladi. Ularning mehnat turlariga qarab maxsus ratsion asosida mutaxassislar nazorati ostida ovqatlanishiga alohida e’tibor qaratiladi.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg‘armasi” davlat muassasasi tarkibidagi “Do‘stlik” agrofirmasi ushbu yirik korxonalarda mehnat qilayotgan ishchi-xodimlarni davolash, profilaktik ovqatlantirish, qolaversa, bayramlarda arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash sohasida samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Joriy yilda ushbu agrofirma tashkil etilganiga 65 yil to‘ldi. Agrofirma 1959-yilda hozirgi Karmana tumani hududidagi 270 gektar maydonda meva-sabzavotchilik va sut ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan davlat xo‘jaligi sifatida tashkil etilgan. O‘tgan davrda uning imkoniyatlari, mahsulot turlari va ishlab chiqarish hajmi oshib bordi. Nafaqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, balki ularni qayta ishlash borasida ham salmoqli tajriba to‘pladi. Sohani rivojlantirish va xalqimiz farovonligini ta’minlash yo‘lida xizmat qilgan ko‘plab fidoyi insonlar korxona solnomasiga abadiy muhrlandi.

1965-yilda tumanning Malikrabot massivida loyiha asosidagi irrigatsiya-melioratsiya tizimiga ega 2000 gektardan ortiq ekin yeri, mexanizatsiya parki va ishchi-xizmatchilar uchun turar joylar, bog‘cha va maktab infratuzilmalari mavjud bo‘lgan davlat qishloq xo‘jaligi korxonasiga asos solindi. Bosqichma-bosqich rivojlanib borgan xo‘jalik nafaqat kombinat, balki Navoiy viloyati, qolaversa, mamlakatimizdagi yirik va ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish subyektiga aylandi.

2000-yilda bu yerda sharbat qadoqlash zamonaviy texnologiyasi joriy etildi. Bugungi kunda agrofirma qoramolchilik, parrandachilik, qo‘ychilik va baliqchilik yo‘nalishlarida samarali faoliyat ko‘rsatyapti.

1996-yilda “Do‘stlik” agrofirmasi nomini olgan xo‘jalikda bosqichma-bosqich mahsulot ishlab chiqarish ko‘lami va turlari kengaytirib borildi. 2004-yilda bir kunda 5 tonna sutni qayta ishlash quvvatiga ega sex qurilib, ishga tushirildi. Hozirgi kunda bu sexda yiliga 1000 tonnadan ortiq 9 turdagi tayyor sut mahsuloti ishlab chiqarilmoqda. Muassasadagi parrandachilik fermasida esa yiliga 8 million dona tuxum olinmoqda.

Agrofirmada bog‘dorchilik ham har jihatdan rivojlanmoqda. Nurota tumanida mexanik ekish usulida 100 gektar maydonda tomchilatib sug‘oriladigan intensiv mevali bog‘ barpo etildi va bugungi kunda bog‘dan 400 tonna hosil olinmoqda. Shuningdek, qo‘shimcha 3 gektar yong‘oqzor yaratildi.

— Agrofirmamizda issiqxonalarni rivojlantirishga kirishilgan. Oxirgi 5 yil davomida agrofirmadagi issiqxonalar maydoni 22



sotixdan 0,70 gektarga kengaytirildi. Tomchilatib sug‘orish tizimi joriy etilib, “aqlli issiqxona” loyihasi asosida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti olimlari bilan hamkorlikda issiqlik va havo almashtirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu yerda bodring, pomidor, ko‘kat, limon yetishtirilib, 15 kishi ish bilan ta’minlandi. Sanoat hududining bo‘sh turgan ochiq maydonlaridagi kichik issiqxonalarda ko‘chatchilik tashkil etildi. Suv resurslari tejamkorligini oshirish maqsadida ko‘p yillik daraxtlar va ozuqabop ekinlarni suspenziya usuli bilan sug‘orish va oziqlantirish texnologiyasi joriy etildi, — deydi “Do‘stlik” agrofirmasi direktori vazifasini bajaruvchi Rasul Husenov.

Yakuniga yetib borayotgan 2024-yilda ham “Do‘stlik” agrofirmasida qator istiqbolli loyihalar ro‘yobga chiqarildi. Jumladan, sigirlarning sut berish ko‘rsatkichlarini nazorat qilib borish maqsadida zamonaviy sut o‘lchagichlar o‘rnatildi. Agrofirma sharoitida mavjud binolardan samarali foydalanilib, inkubatorda jo‘ja chiqarish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Sutni qayta ishlash sexida quruq sutdan qo‘shimcha sut xomashyosi va tayyor mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, joriy yilda agrofirma dehqonlari tomonidan 558 tonna bug‘doy, 427 tonna meva va uzum, 358 tonna sabzavot va poliz ekinlari, qariyb 7 ming tonna ozuqabop ekinlar yetishtirildi. Chorvadorlar esa kombinat bo‘linmalarini 1,5 ming tonna sut va 630 tonna go‘sht mahsulotlari bilan ta’minladi. 8 million donadan ortiq tuxum va 3,8 tonna tabiiy asal yetishtirilib, iste’mol uchun yetkazib berildi. Shuningdek, 1300 tonnadan ortiq qayta ishlangan sut mahsulotlari, 500 tonnadan ziyod qayta ishlangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tayyorlandi.

Ayni kunlarda 65 yilligini nishonlayotgan “NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasi tasarrufidagi “Do‘stlik” agrofirmasi o‘tgan yillar davomida zamonaviy sanoat va innovatsion yechimlar tatbiq etayotgan bo‘linmalarga ega ko‘p tarmoqli yirik xo‘jalikka aylandi. Hozir agrofirmada 550 dan ortiq ishchi-xizmatchi, chorvador va dehqon el-yurt dasturxonini to‘kin-sochin qilish, kombinat bo‘linmalarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash yo‘lida zo‘r g‘ayrat va shijoat bilan mehnat qilmoqda.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Kun nafasi

Mamlakatimiz oltin zaxiralariga boy davlatlardan. Bu borada dunyo bo‘yicha 4-o‘rinni egallab turibdi. Oltin qazib olish bo‘yicha esa 10-o‘rinda. Tabiiy zaxiralar mamlakat iqtisodiyotida qanchalik katta o‘rin tutishini hisobga olsak, bu borada ham imkoniyatimiz yuqori. Qolaversa, jahon savdo bozorida nafaqat pul shaklidagi, balki oltin bilan amalga oshiriladigan oldi-berdilar ham mavjud.

“Kimberli jarayoni” sertifikatlash sxemasi xalqaro hukumatlararo tashabbus bo‘lib, asosiy maqsadi noqonuniy yo‘l bilan qazib olingan olmoslarning jahon bozoriga kirib kelishiga qarshi kurashishdan iborat. Gap shundaki, harbiy to‘qnashuvlar paytida qazib olingan olmoslar “qonli” olmoslar deb ataladi. Ulardan tushgan pul ham faqat harbiy maqsadlarga sarflanadi.

TARIXIY VOQEA

Milliy zargarlik sanoatimizga yangi quvvat kirib keladi

Bu bir tomondan zargarlik sanoati tobora rivojlanib borayotgani bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa jihatdan tabiiy toshlarga qiziqish va talab xalqaro bozorda doim yuqori ekanidan darak beradi. Ular orasida yana bir yuqori qiymatga ega ma’dan bor, bu — ko‘pchilik ayollar ko‘z-ko‘z qilishni istaydigan olmoslar. Xalqona tilda aytganda, brilliant har qanday zargarlik buyumini bezash bilan birga jahon savdo maydonida eng xaridorgir mahsulotlardan biri. Ma’lumotlarga ko‘ra, yer yuzida qazib olinadigan olmosning 80 foizidan sanoatda foydalanilsa, 20 foizidangina qimmatbaho taqinchoqlar yasaladi.

Ko‘pchilik O‘zbekistonda tabiiy olmosning aniqlangan zaxiralari mavjud emasligi va ushbu turdagi qimmatbaho tosh yurtimizda qazib olinmasligi haqida bilmasa kerak. Shu bois, mamlakatimizda olmosni qayta ishlaydigan korxona yoki tadbirkorlik subyekti ham yo‘q. Olmos bizga faqat import asosida kirib keladi. Xorijdan olib kelingan tayyor zargarlik mahsulotlarining narxi ham shunga yarasha qimmat bo‘lishi sir emas.

Endi mamlakatimiz sharoitida ham tabiiy olmosni import qilish va qayta ishlash imkoniyati yaratiladi. Boisi, shu yil noyabrida O‘zbekiston Xalqaro olmoslar aylanmasini nazorat qilish tashkiloti — “Kimberli jarayoni”ning sertifikatlash sxemasi (KJSS)ga 60-davlat bo‘lib qo‘shildi. Keyingi 21 yildan buyon samarali faoliyat yuritib kelayotgan nufuzli tashkilot mojaroli hududlardan olingan olmoslarning jahon bozoriga chiqishining oldini olish va olmos savdosi yaxlitligini himoya qilishga qaratilgan yagona tashabbus bo‘lib turibdi. O‘zbekistonning mazkur tuzilmaga a’zoligi esa istiqlol davridagi 33 yillik tariximizda ilk voqea sifatida e’tirof etilmoqda.

Bu hodisa shu yil 14-noyabrda Dubayda bo‘lib o‘tgan “Kimberli jarayoni”ning 21-yalpi majlisida tantanali e’lon qilindi. Xalqaro tashkilot rahbari Ahmad bin Sulaym o‘z nutqida mamlakatimizni a’zolik bilan qutlar ekan, “O‘zbekiston “Kimberli jarayoni”ga qo‘shilish bo‘yicha muhim qadam qo‘yganini e’lon qilishdan mamnunman. “Kimberli jarayoni” oilasiga xush kelibsiz! Mazkur xalqaro tashabbus hamkorlik va o‘zaro mas’uliyat asosida qurilgan bo‘lib, a’zo davlatlarda 59 ta nazorat nuqtasiga ega edi. Endi O‘zbekiston qo‘shilishi bilan bu raqam 60 taga yetdi”, deya ta’kidladi.

Shunday qilib, yurtimiz yana bir nufuzli xalqaro tashkilotning to‘laqonli a’zosiga aylandi. Bu yo‘ldagi sa’y-harakatlar esa ancha oldin boshlangan edi. Tashkilotga qo‘shilish uchun ariza 2019-yilda topshirilgan. Ammo pandemiya tufayli jarayon bir muddat to‘xtab qoldi. 2021-yilga kelibgina qayta tiklandi va faollashdi. Chunki vazifa aniq, maqsad esa jiddiy edi. Shu bois, o‘tgan vaqt davomida O‘zbekistonda qimmatbaho metall va toshlarning aylanmasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza ishlab chiqilib, “Kimberli jarayoni” sertifikatlash tizimi talablariga rioya qilishni ta’minlash bo‘yicha mas’ul tashkilotlar belgilandi. Prezidentimizning joriy yil 23-iyuldagi “Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini yanada rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan “Kimberli jarayoni”ga a’zo bo‘lish ishlari yanada tezlashdi.

Nihoyat bajarilgan talablar natijalarini ko‘rsatish vaqti keldi va shu yil oktyabrida xalqaro tashkilot ekspert missiyasi, qator a’zo davlatlar, xususan, BAA, Rossiya, Belarus, Germaniya vakillari, Jahon olmos kengashi kuzatuvchilaridan iborat guruh yurtimizda bo‘lib, qilingan ishlar bilan tanishdi. O‘zbekiston “Kimberli jarayoni”ning minimal



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

talablarini bajargani ekspertlar tomonidan ijobiy baholandi va mamlakatimiz xalqaro tashkilot a’zolari qatoridan joy oldi.

Tashkilotga a’zolik nima beradi?

Manbalarda “kimberli” so‘zining bir qancha ma’nosi keltiriladi. Bir joyda u tarkibida olmos bo‘lgan tog‘ jinsi sifatida keltirilgan bo‘lsa, boshqa ma’lumotda Janubiy Afrikadagi “olmos shahar” nomini olgan Kimberli shahri bilan bog‘lanadi. Har qaysi holatda ham uning olmosga borib taqalishini “Kimberli jarayoni” tashkilotining missiyasi mohiyatidan ham anglash mumkin.

“Kimberli jarayoni” sertifikatlash sxemasi xalqaro hukumatlararo tashabbus bo‘lib, asosiy maqsadi noqonuniy yo‘l bilan qazib olingan olmoslarning jahon bozoriga kirib kelishiga qarshi kurashishdan iborat. Gap shundaki, harbiy to‘qnashuvlar paytida qazib olingan olmoslar “qonli” olmoslar deb ataladi. Ulardan tushgan pul ham faqat harbiy maqsadlarga sarflanadi. “Kimberli jarayoni” tashkiloti faoliyati esa qimmatbaho toshlardan tushgan mablag‘ning mintaqaviy nizolar va xalqaro terroristik guruhlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishiga to‘sqinlik qilishdan iborat. Barcha manfaatdor tomon — olmos qazib oluvchi, qayta ishlovchi, eksport va import qiluvchi davlatlar, olmos sanoati hamda fuqarolik jamiyatlarini shu maqsad yo‘lida birlashtiradi.

Tartibga ko‘ra, har bir ishtirokchi davlat o‘z hududida import yoki eksport qilinayotgan qayta ishlanmagan olmos partiyalarida mojaroli hududlardan olingan olmoslar mavjud emasligini kafolatlash uchun ichki nazorat tizimini yaratishi kerak. Buni dunyo bo‘yicha olmoslarning noqonuniy savdosiga qarshi yirik kurash harakati deyish mumkin. Hozircha “Kimberli jarayoni” bu boradagi yagona tashkilot bo‘lib, qayta ishlanmagan olmoslarni sertifikatlash bo‘yicha milliy qonunlar va tajribaga asoslangan, xalqaro darajada kelishilgan minimal standartlarga javob beradigan, mojaroli hududlardan olingan olmoslar muammosini hal qilishda eng samarali tizimdir.

Endi O‘zbekiston ham ana shu harakat ishtirokchilaridan biri. Xo‘sh, bu mamlakatimiz iqtisodiyoti, xususan, zargarlik sanoatiga nima beradi?

— Avvalo, qayta ishlanmagan tabiiy olmoslarni import-eksport qilish imkoniyati kengayadi, — deydi “O‘zbekzargarsanoati” uyushmasi raisi Shohrux To‘ychiboyev. — Chunki “Kimberli jarayoni” sertifikatlash tizimi qoidalariga ko‘ra, tashkilotga a’zo bo‘lmagan davlatlarga tabiiy olmos sotilmaydi. Qolaversa, tashkilotga a’zo bo‘lish O‘zbekiston zargarlik sanoatini jahon miqyosida yana bir pog‘ona yuqoriga olib chiqadi. Ya’ni yurtimizda tabiiy olmosni qayta ishlash korxonalarini tashkil etish, bu orqali yangi ish o‘rinlari yaratish, zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchilarning qayta ishlangan olmosga ehtiyojini qondirish, zargarlik sanoati milliy ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab-quvvatlash, ularning haq-huquqlarini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlarga yo‘l ochadi. Bu brilliant toshlarni o‘zimizda qayta ishlab, ichki bozorga arzon narxda chiqarish imkoniyati, shu yo‘nalishda ishlovchi tadbirkorlik subyektlari paydo bo‘ladi, degani. Xalqaro hamkorlikda ham bu juda katta ahamiyatga ega. Jarayonda ilg‘or tajriba almashish, tarmoqqa zamonaviy texnologiyalar va xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda bevosita jahon olmos bozoriga kirib borish mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Albatta, tashkilotga a’zolik boshqa vakil davlatlar bilan do‘stlik, o‘zaro hamkorlik, qo‘llab-quvvatlov, birdamlik, degani. O‘zaro savdodan esa barcha tomon birdek manfaatdor. Shu bois, tashkilotga a’zo davlatlar O‘zbekistonda tabiiy olmosni qayta ishlaydigan zavodlar ochishga qiziqish bildirmoqda. Keyinchalik ichki bozor ishlab chiqaruvchilariga brilliant xomashyosini yetkazib berish yoki zargarlik buyumi sifatida xorijiy davlatlarga eksport qilish masalasida ham muhokamalar ketyapti.

Shu orqali milliy zargarlik sanoatimizga yangi quvvat kirib keladi. Chunki mazkur tarmoq iqtisodiyotimizning “oltin drayveri”ga aylanib bormoqda. Sohada raqobat ham oshgan. Har holda hozir zargarlik mahsulotlari ishlab chiqaradigan o‘nlab korxonalar nomini bilamiz, tanlash imkoniyatimiz ham keng. Milliy zargarlik sanoatida o‘sish ko‘rsatkichi oshyapti. Birgina misol, joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida yurtimizda qiymati 2 trillion 375,9 milliard so‘mlik 6890 kilo zargarlik mahsuloti ishlab chiqarilgan. Bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli darajada ko‘p. Prezidentimizning mazkur farmonida zargarlik sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha yangi vazifalar belgilangan. Masalan, 2024-2026-yillarda yurtimizning barcha hududida zargarlik markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Bu markazlarda ishlab chiqaruvchilarni xomashyo bilan ta’minlashdan tortib, eksportgacha bo‘lgan jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi zarur infratuzilma yaratiladi. Shu yerning o‘zida oltin zaxirasi omborlari tashkil etiladi.

Yaqin yillarda shu kabi raqamlarni olmosni qayta ishlash tarmoqlari misolida ham keltiramiz. Boisi, asosiy qadam qo‘yildi va O‘zbekiston “Kimberli jarayoni” sertifikatlash sxemasining to‘laqonli a’zosi sifatida yangi vazifalarga kirishmoqda.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Munosabat



Shuhrat SIROJIDDINOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, Xalq deputatlari Toshkent shahar kengashi deputati

MA’NAVIYAT VA IQTISODIYOT
ikki tayanch ustun



Boshlanishi 1-betda

Demak, ma’naviyat va iqtisodiyotni qushning ikki qanoti, desak bo‘ladi va ularni bir-biridan ajratib tahlil etish mushkul. Olimlar ekonometrik model va usullar orqali mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’sir etadigan omillarni, jumladan, ma’naviyatning unga ta’sirini aniqlagan. Ulardan asosiylarini tanlab, iqtisodiy o‘sishga kompyuter dasturlari yordamida yechim topish borasida tadqiqot o‘tkazadigan markazlar jahonda talaygina. Biz yangi ma’naviyat metodologiyasini yaratishda mana shunday tajribalarni ham o‘rganib chiqishimiz, loyihalarimiz bilan yurtimiz iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo‘shishimiz kerak.

Prezidentimiz yangi O‘zbekistonning kelgusidagi pirovard maqsadi yoshlarni zamonaviy bilim va dunyoqarash, daromadli kasb egalari etib tarbiyalash, ilm-fan, axborot texnologiyalari, ma’naviyat, san’at va adabiyot, sport bilan oshno etish hamda buning uchun hech narsani ayamay, bor kuch va imkoniyatlar safarbar etilishini qayd etar ekan, **“Bugun faqat mana shunday ilg‘or yoshlarga, mana shunday jonkuyar ziyolilarga, Vatan ravnaqi yo‘lida birlashgan xalqqa ega bo‘lgan davlatgina o‘z milliy manfaatlarini ta’minlashga erisha oladi”,** deya ta’kidladi.

Bugun yoshlarning ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirishi, intellektini namoyon qilishi, tahliliy fikrlashi, iqtidori va ijtimoiy moslashuvi uchun zarur sharoit yaratish bo‘yicha salmoqli ishlar qilinmoqda. Dunyo tajribasida ilmiy tadqiqotlar, axborot texnologiyalari, startap g‘oyalar, kompyuter savodxonligiga juda katta e’tibor beriladi. Biz ham ilm-fan yutuqlari va yangi texnologiyalar orqali iqtisodiy o‘sishga erishamiz. Iqtisodiy barqarorlik ma’naviyat yuksalishiga va o‘z navbatida, yangi ma’naviyat barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ular bir-biriga bog‘liq. Demak, iqtisodiyot jamiyat tanasining qoni ekan, uning me’yorida aylanishi yoxud o‘sish sur’ati kuchli madaniyat shakllanishiga xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, jamiyat tanasining ruhi tetik va sog‘lom bo‘lsa, iqtisodiyot barqaror rivojlanadi. Faqat ana shu jarayonlarni o‘rganadigan ilmiy metodologiya yaratilishi, kompyuterlarda “qon” tarkibini tahlil etadigan hamda jamiyat “joni va ruhi”ni kardiogramma qiladigan usullar yaratilishi lozim. Unda ma’naviyatning iqtisodiyotga qanchalik xizmat qilayotgani va aksincha, iqtisodiyotning insonlar tafakkuri, ongi va madaniyatiga ta’sirini tizimli miqdoriy aniqlash imkoniyati yaratiladi, tanaga “tashxis” qo‘yish va ularga kiritilayotgan investitsiya samaradorligi o‘lchanadi. Bu esa turli mutaxassislardan iborat tadqiqot guruhlarining faoliyat yuritishini talab etadi.

O‘tayotgan har bir davr o‘zining xulosasini beradi. Shu ma’noda, keyingi yillar tajribasi har bir yilimiz ulkan dastur va loyihalarni amalga oshirish, davlat va jamiyatni yanada rivojlantirish borasidagi bilimu tajribalarimizni boyitish borasida yangi bosqich, yuksalish davri sifatida tarixga muhrlanmoqda. Bu, albatta, ijobiy hol.

Davlatimiz rahbari bugun dunyoning siyosiy va iqtisodiy manzarasi keskin o‘zgarib borayotgani, shunday vaziyatda jahon sahnasida o‘z o‘rnimizni saqlab qolishimiz uchun qanday harakat qilishimiz kerak, degan masalaga alohida to‘xtaldi: **“Hech qachon unutmasligimiz zarur: mamlakatimiz xavfsizligi, yurtimiz mudofaasi nafaqat Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qilish idoralari, balki O‘zbekistonni o‘zi uchun ona Vatan deb biladigan, millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha insonlarning muqaddas burchidir”.** Mana shunday vaziyatda qanday kuchga tayanishimiz lozimligi ham ta’kidlandi. Buning uchun yagona vatan, ko‘pmillatli yagona ahil oila tuyg‘usi har birimizning qalbimiz, yuragimizdan chuqur joy olishi kerak. Bu kuchli iroda, birlik va hamjihatlik, qattiq mehnat demakdir. Mana shu yengilmas kuchlar bilangina tinchlik va taraqqiyotni ta’minlay olamiz.

Bugun hayotning har bir jabhasida jadal davom etayotgan yangilik va bunyodkorlik ishlari natijasi xalqimiz hayotida o‘z ifodasini topishi barobarida nufuzli xalqaro reyting va indekslar ko‘rsatkichida ham yuqori o‘rinda qayd qilinmoqda. Nima uchun xalqaro reyting va indekslarda qayd etilgan natijalarga alohida e’tibor qaratyapmiz? Sababi, bunday ko‘rsatkichlar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o‘zida namoyon etadi. Ular aholi turmush darajasi, barqaror iqtisodiy o‘sish kabi muhim jihatlarning ko‘zgusidir. Prezidentimiz joriy yil 19-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yalpi yig‘ilishida ham bu masalaga alohida urg‘u berdi. Keng ko‘lamli demokratik islohotlar tufayli O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi o‘rni yaxshilanib borayotgani ta’kidlandi. Natijalar haqiqatan har birimizning qalbimizga mamnunlik bag‘ishlaydi. Axir mamlakatimiz reytingi qonun ustuvorligi bo‘yicha 8, elektron hukumat bo‘yicha 18, iqtisodiy erkinlik bo‘yicha 49, logistika va innovatsiya bo‘yicha 10 pog‘ona yuqoriga ko‘tarilgani kichkina natija emas. Albatta, bunday



ko‘rsatkichlar o‘z-o‘zidan qo‘lga kiritilmaydi. Bu aniq belgilangan strategiya, qonun ustuvorligiga asoslangan fuqarolik jamiyati va eng asosiysi, ertangi kunga ishonch bilan yashaydigan xalq birdamligi natijasidir.

Har bir mamlakat qanday siyosiy va ijtimoiy harakatlarni amaliyotga joriy etishidan qat’i nazar, barcha maqsadi xalq manfaatiga — aholi turmush darajasini yaxshilash, yetakchi mamlakatlar safidan joy olishga qaratiladi. Aholi turmush darajasi yaxshilanishi bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari samaradorligi, ilmiy-texnik taraqqiyot, aholining madaniy-ma’rifiy saviyasi va tarkibi bilan bir qatorda hukumat qabul qiladigan chora-tadbirlar hamda amaliy harakatlar natijasiga bog‘liq. Yig‘ilishda davlatimiz rahbari qayd etgan raqamlar fikrimiz isboti: **“Barcha imkoniyatlarni ishga solganimiz tufayli bu yilning o‘zida yalpi ichki mahsulotimiz hajmi 110 milliard dollarga yetishi kutilmoqda”.** Bu kabi sa’y-harakatlar jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, xalq farovonligi uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiradi. Mamlakatimiz barcha sohada salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritayotir. Muhimi, muvaffaqiyatlarimiz davom etmoqda. Albatta, bu natijalar zamirida uzoqni ko‘zlagan keng ko‘lamli islohotlar, xalqimizning fidokorona mehnati yotibdi. Shu maqsadda **kambag‘al oilalarga mansub bolalar maktablarda chet tili, kasb-hunar va IT bo‘yicha bepul bilim olishi uchun 500 milliard so‘m ajratilishi rejalashtirildi. Ijtimoiy ahvoli og‘ir mingta mahallada infratuzilmani yaxshilash dasturi amalga oshiriladi. Bunga 2 trillion so‘m yo‘naltiriladi. Kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishga jami 46,5 trillion so‘m mablag‘ sarflanadi.**

> **O‘TAYOTGAN HAR BIR DAVR O‘ZINING XULOSASINI BERADI. SHU MA’NODA, KEYINGI YILLAR TAJRIBASI HAR BIR YILIMIZ ULKAN DASTUR VA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISH, DAVLAT VA JAMIYATNI YANADA RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI BILIMU TAJRIBALARIMIZNI BOYITISH BORASIDA YANGI BOSQICH, YUKSALISH DAVRI SIFATIDA TARIXGA MUHRLANMOQDA. BU, ALBATTA, IJOBIY HOL.**

Aslida, bu yo‘nalishdagi xayrli ishlarning huquqiy asosi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan. Bepul umumiy o‘rta ta’lim, shuningdek, tanlov asosida davlat ta’lim tashkilotlarida bepul oliy ma’lumot olish huquqi mustahkamlangan, alohida ehtiyojlarga va individual imkoniyatlarga ega bolalar uchun inklyuziv ta’lim-tarbiyani tashkil etish yangi O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi majburiyati sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, davlat iqtidorli yoshlarning moddiy ahvolidan qat’i nazar, ta’lim olishni davom ettirishini kafolatlab, ta’lim muassasalari va tashkilotlarining xususiy va boshqa shakllarini rivojlantirish uchun teng sharoit yaratishi nazarda tutilgan. Ko‘rilayotgan chora-tadbirlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, yurtimizning ijobiy imijini mustahkamlash va aynan madaniyatimiz, san’atimiz orqali yosh avlodni haqiqiy vatanparvar insonlar qilib tarbiyalash asosiy vazifamizdir.

Prezidentimizning bizga bildirgan ishonchini oqlab, barcha soha taraqqiyotini yuksak cho‘qqilarga olib chiqishda yaratilgan imkoniyatlardan o‘rinli foydalanamiz.

Murojaatnomada taraqqiyotimizning yangi bosqichidagi rejalar belgilab berildi. Biz, deputatlar unda keltirilgan vazifalarning barchasini amalga oshirish, ilgari surilgan g‘oya va tashabbuslarni hayotga izchil tatbiq etishga tayyormiz. Bunga salohiyatimiz ham, qurbimiz ham yetadi. Murojaatnomani yana bir bor chuqur o‘rganib, zarur chora-tadbirlarni belgilab olgan holda ulug‘vor vazifalar, yo‘nalishlar hamda topshiriqlarni amalga oshirishga hissa qo‘shamiz.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

KADRLAR RAQOBATBARDOSHLIGI
amaliyot jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liq



Shavkat HASANOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kamolot pillapoyasi

Har bir davlatning istiqboli ilm-fan, texnika, ta’lim taraqqiyoti va barkamol kadrlarni voyaga yetkazishga bog‘liq. Malakaviy amaliyot oliy o‘quv yurtidagi ta’lim-tarbiya jarayonining davomi sifatida nazariy bilimlarni mustahkamlash hamda mazkur bilim, ko‘nikma va malakani bevosita ishlab chiqarish jarayonida qo‘llash imkonini beradi. O‘qitish samaradorligini amaliyot bilan mustahkamlash borasida Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida qator ishlar bajarilmoqda.

Yoshlarga sifatli ta’lim berish, qolaversa, sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirish maqsadida institut 30 dan ortiq yirik korxona va tashkilot bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan va shartnomalar tuzgan. Mutaxassislik kafedralarining qishloq xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot muassasalarida kafedra filiali va o‘quv markazlari ochilgan. Ularda ta’lim mutaxassisliklarining o‘quv rejasiga muvofiq mutaxassislik fanlaridan amaliy mashg‘ulotlarining 50 foizi 5+1 dasturi doirasida ilmiy-tadqiqot muassasalarida hamda ishlab chiqarish korxonalarida o‘tkazilmoqda.

Masalan, Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi, agroxizmatlar markazi, Jomboy o‘simliklar klinikasi va biolaboratoriya markazi, Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasi, Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasi shular jumlasidan. Bundan tashqari, O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand filiali, “Samo agro” MCHJ, “Zarafshon Lohman Parranda” MCHJ QK, “PURE MILKY WORKS” MCHJ, “Jomboy Agrobio servis” MCHJ, “O‘zbegim agro” O‘zbekiston — Germaniya MCHJ yirik paxta-to‘qimachilik klasteri hamda yirik qishloq xo‘jaligi korxona va tashkilotlari, agroklasterlari hamda ilg‘or fermer xo‘jaliklarida ham talabalarimizning amaliyot o‘tashiga sharoit yaratilgan.

Joriy yilda institutning qariyb 200 ga yaqin talabasi 10 dan ortiq rivojlangan mamlakat, xususan, Germaniya, Buyuk Britaniyadagi yirik korxona va tashkilotlarda haq to‘lanadigan amaliyotni o‘tab qaytdi. Bu jarayon talabalarga zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnologiyalari bilan tanishish imkonini berdi. GPS tizimli traktorlar, dronlar va sensorlar yordamida yerni nazorat qilish, hosildorlikni oshirishga qaratilgan ilg‘or biotexnologiyalar va “aqlli” sug‘orish tizimlarining afzalliklari o‘rganildi. Amaliyot davomida talabalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi avtomatlashtirilgan uskunalar bilan ishlash tajribasini o‘rgandi. Rivojlangan davlatlarning ekologik toza ishlab chiqarish va organik qishloq xo‘jaligi usullari bilan yaqindan tanishdi. Ular nafaqat ilg‘or texnologiyalar, balki qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish usullari haqida ham ma’lumotga ega bo‘ldi.

Talabalar Germaniyaning raqamlashtirishga asoslangan fermer xo‘jaliklari bilan yaqindan tanishdi. Amaliyot davomida ma’lumotlarni tahlil qilish, aniq rejalashtirish va zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llashni o‘rgandi. Zamonaviy hosil yig‘uvchilar, tuproqni zarar yetkazmasdan qayta ishlaydigan uskunalar va resurstejamkor tizimlar ularda katta qiziqish uyg‘otdi. Talabalar orttirgan tajribasi orqali zamonaviy qishloq xo‘jaligida resurslarni tejash va ekologik mas’uliyatni ta’minlash bo‘yicha yangi g‘oyalarga ega bo‘ldi.

Bu kabi amaliyot o‘tagan yoshlar kelgusida soha rivojiga hissa qo‘shish bilan birga ilm-fanning yangidan kirib kelayotgan yutuqlari, texnika va texnologiyalarni tez va oson amaliyotga tatbiq etadi.

Kelgusida ham oliygohda ta’lim sifatini oshirishning samarali yechimlari qatorida talabalarning nazariy bilimlarini ishlab chiqarishda amaliy jihatdan mustahkamlash, fan — ta’lim — ishlab chiqarish integratsiyasini yanada kuchaytirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirgan malakali mutaxassislarni tayyorlashga ustuvor vazifa sifatida qaraladi.



Shukronalik

Bolalik damlarim yaxshi o‘tgan, deya maqtana olmayman. Rosti, u paytlari beg‘ubor bolalik degan narsaning o‘zi bo‘lmagan. Hali-hamon yodimdan chiqmaydi. Ayni Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillar edi. Otam ham erta vafot etgani bois, yolg‘iz onam qaramog‘ida qolib ketganmiz. Men olti yoshda, opam sakkizda edi. Dalaga tong sahardan boshoq tergani oshiqamiz. Kun davomida bir etak boshoq terib kelsak, shu kuni bayram. Gohida shudgordagi kesakka bosh qo‘yib uxlab qolaman. Opam ikkimiz kechga qadar holdan toyib uyga qaytamiz. Birgina bizning oilamizda emas, barcha xonadonlarda shu hol edi.

YURT ORI, MILLAT FAXRI UCHUN HARAKATDAN TO‘XTAMAYMIZ



Abdurashid MIRZAYEV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sport ustozi

Turmush mushtdan qattiq. Ocharchilik degan balo hamma joyda hukmron. Kimning bir burda noni borki, undan baxtli odam yo‘q. Bir safar bug‘doy dalasida brigadir qo‘liga tushib qoldim. Bu hali yosh bola-ku, deb ham o‘tirmadi. Qamchisining zarbi hali-hamon yelkamni zirqiratib turadi. Eslasam, ko‘zimga yosh keladi. Bisotimizda birgina echki bor edi. Shuni boqish uchun dalaga yetaklab chiqardim. Ko‘klam paytlari uch-to‘rt tengdoshim bilan kurash tushardik. Bizga birov kurash usullarini o‘rgatmagan. Hozirgidek shinam sport koshonalari qayda edi! Har safar bo‘zdan tikilgan ko‘ylagimni yirtib kelib, onamdan dakki eshitardim. Bir kuni kechasi shu echkimizni ham o‘g‘irlab ketishdi. Onam bechora ancha vaqtgacha yig‘lab yurdi. Shundan so‘ng kurash tushishdan ham mahrum bo‘ldim.

Oradan vaqt o‘tib, o‘zimcha katta chempion bo‘lish ishtiyoqida harakat qildim. Viloyat musobaqalaridan nariga o‘tishga yo‘l berishmadi. Endi orzularim sarobga aylanarkan, milliy kurashimiz ham shu holda unutilib ketarkan deb o‘ylagandim. Shukrki, istiqlol tufayli barchasi qayta tiklandi. Bundan g‘ururlanib, nafaqaga chiqqan bo‘lsam-da, yeng shimarib maydonga chiqdim. Kurash gilamida ko‘kragimga ozodlik shamoli tegib, o‘zimni qushdek yengil his qildim. Bir necha bor mamlakat chempionligini qo‘lga kiritdim. Faxriylar o‘rtasida jahon chempioni, degan nomga sazovor bo‘ldim. Sportning ortidan keksa yoshimda dunyo kezdim. O‘zbek kurashi qanday ekanini jahon sport arenalarida maqtanib, mag‘rurlanib ko‘rsatishdan charchamadim. Shogirdlarimning sanog‘i yo‘q. Ular bugun mamlakatimizning turli hududlarida kurashni targ‘ib qilishda hissa qo‘shmoqda. Davlatimiz rahbari “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sport ustozi” unvoni medalini ko‘ksimga taqib qo‘yganida esa barcha armonlarim shu damda unutilgani ham rost.

Bugun butun dunyo bizning milliy kurashimizga qiziqmoqda. O‘rganishga intilmoqda. Jahon maydonlarida “halol”, “yonbosh”, “chala” kabi sof o‘zbekona so‘zlar baralla yangramoqda. Shu orqali ham o‘zbekchani, ham halollikni o‘rgatayotganimiz ham sir emas.

Boshqa sport turlari ham kam bo‘layotgani yo‘q. Yoshlarimiz qaysi sport turi bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lsa, barchasi uchun imkoniyatlar eshigi katta ochilgan. Qiziqishi bo‘lsa bas. O‘z iqtidorini namoyon qilib, Olimpiada sari otlanaman, desa-da yo‘l ochiq.

Joriy yil yozgi Olimpiada o‘yinlarini katta hayajon bilan kuzatib bordim. Har bir sportchimizning chiqishini qoldirmasdan ko‘rib, olisdan duoda bo‘lib turdim. Ayniqsa, Diyoraxon qizimizning shijoati, mardonavor harakatlari, g‘alabaga bo‘lgan ishtiyoqi barchamizni vatanparvarlikka chorladi. Oltin medalni qo‘lga kiritib, shohsupaga ko‘tarilarkan, yurtimiz madhiyasi kuylana boshlagach, o‘zim sezmagan holda o‘rnimdan turib, qo‘limni ko‘ksimga qo‘ygan holda qo‘shilib ayta boshladim. Ko‘zimga esa sevinch yoshlari quyilib kelyapti. Bayrog‘imiz baland ko‘tarilgan. Butun jahon sportchilari o‘zbek qiziga havas ila boqmoqda. Bir payt o‘zimga kelib, ortimga qarasam, biri to‘rt, biri besh yoshli nabiralarim ham tik turgan holda qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib turibdi.

Bugun yoshim to‘qsonga yaqinlashib qolgan bo‘lsa-da, hamon kurash gilamidan tushganim yo‘q. Axir bunday zamonada yurt ori, millat faxri uchun bir muddat ham harakatdan to‘xtashga haqqimiz yo‘q. Qaddi va qadri yuksalayotgan mamlakatimiz obod manzilga aylanayotgani rost bo‘lsin. Qaddingdan aylanay, qadri balandim!

Ota-onalik Yaratgan tomonidan in’om etilgan eng yuksak rutbalardan biri. Ammo besh qo‘l barobar emas ekan-da, so‘nggi uch yil mobaynida yurtimizda 2072 nafar shaxs sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan. Bunga ularning ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortgani yoki bolalarga nisbatan shafqatsizlik qilgani sabab bo‘lgan.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН

2024-yil 12-dekabr, 252-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Mulohaza

Toshkentning so‘lim xiyoboni. Xazonrez faslida bog‘ aro sayrga nima yetsin! Ammo noxush bir manzara sabab qalbda bosh ko‘tarib kelayotgan ajib hislar daf’atan xavotir-u tashvishga almashadi. Uzun yo‘lak chetida qirqni qoralagan erkak besh-olti yashar bolaga musht do‘laytirgancha baqirayotir. Ota-o‘g‘il bo‘lsa kerak. Rangpar bolakay nozik qo‘llarini quloqlariga qo‘ygancha qunishib turibdi. Erkak bolaning yuziga ilkis tarsaki tortib yubordi. U cho‘kkalab qoldi. Jussasi shundoq ham ixcham va zaif bola yanada kichrayib ketgandek. Ajabo, bu sabiy xilqat ota bo‘lmish “pahlavon”ning quyushqondan chiqqudek bo‘lib o‘kirishiga loyiq nima “gunoh” qildi ekan?! O‘tgan-ketganning esa parvoyi palak, “Hoy birodar, nega norasidaga bu qadar zug‘um qilasan?” deb so‘ramoqqa hafsala qilmaydi birov...



TOMOSHABIN BO‘LMOQQA HAQQIMIZ YO‘Q

BOLALARNI ZO‘RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH – INSONIY, IMONIY BURCHIMIZ



Olimjon DAVLATOV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti direktori,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

“Qo‘l sinsa — yeng ichida”mi?

Bolaga mehr-muhabbat ko‘rsatish xalqimizga xos azaliy qadriyatlardandir. Dunyo ahli xalqimizni bolajon, oilaparvar deb bilishi ham ayni haqiqat. Ota-bobolarimiz farzandlarini dilbandim deya alqagan, ta’bir joiz bo‘lsa, kiprigida ko‘tarib, voyaga yetkazgan. Jo‘mard otalarimiz, munis-mehribon onalarimiz hatto beshikdagi bolasini ham sizlagan, jigarbandiga qo‘l ko‘tarish, hatto ovozini balandlatishni o‘ziga nomunosib ish deb bilgan. Farzandi uchun jonini ham nisor etgan, uning baxt-u kamoli yo‘lida suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib yashab o‘tgan ota-bobolarimizning nurli hayot yo‘li, oqilona tarbiya usuli biz, avlodlar uchun hamisha ibrat va namuna bo‘lmog‘i lozim.

Yaqin tarixni yodga olsak. Ikkinchi jahon urushi davrida, yo‘g‘on cho‘zilib, ingichka uzilgan damlarda ham hazrati inson maqomiga sodiq qolgan, turli millatga mansub o‘n to‘rt nafar yetim bolani asrab olgan toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudovning ma’naviy jasorati zarbulmasal bo‘lgan. Urushdan og‘ir jarohat bilan qaytganiga qaramay, qarovsiz qolgan o‘n uch bolaga oilasi bag‘ridan joy bergan samarqandlik Hamid Samadovning mehr-u muruvvati ham ibrat-u tahsinga loyiq.

Taassufki, keyingi yillarda jamiyatimizda bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatning turli shakllari ko‘zga tashlanmoqda. Bolalarga nisbatan jismoniy, ruhiy, hatto jinsiy zo‘ravonlik aks etgan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan lavhalar har bir yurtdoshimiz qalbida og‘riq, xavotir va nafrat uyg‘otayotgani sir emas. Bolajon xalqimizga mutlaqo yarashmaydigan bunday holatlar bilan aslo murosa qilib bo‘lmasligini alohida ta’kidlashni istardik.

Xalqaro tashkilotlar tadqiqotlariga ko‘ra, sayyoramiz bo‘yicha bir milliardga yaqin bola jismoniy, jinsiy, ruhiy zo‘ravonlikka duch kelgani holda jabrdiydalarning 80 foizi bu haqda hech kimga xabar bermaydi.

UNICEF o‘tkazgan so‘rov ko‘rsatdiki, mamlakatimizda 1 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarning uchdan ikki qismi (62 foizi) zo‘ravonlik bilan tarbiyalash usullariga duch kelgan.

2021-yilda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan huquqbuzarliklar bo‘yicha jinoyat ishlari soni 1831 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilda 2194 taga yetgan. Bolalarning jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar ko‘lami esa 334 tadan (2021) 395 taga (2022) ortgan.

Ota-onalik Yaratgan tomonidan in’om etilgan eng yuksak rutbalardan biri. Ammo besh qo‘l barobar emas ekan-da, so‘nggi uch yil mobaynida yurtimizda 2072 nafar shaxs sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan. Bunga ularning ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortgani yoki bolalarga nisbatan shafqatsizlik qilgani sabab bo‘lgan.

Xavotirli jihati shundaki, jamiyatimizda “Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik — har bir oilaning ichki masalasi”, degan yanglish qarash ildiz otmoqda. Shu ma’noda, ayrim oilalar bolalar jismoniy yoki ruhiy zug‘um qurboni bo‘lgan holatlarni “Bosh yorilsa — bo‘rk ichida, qo‘l sinsa — yeng ichida” qabilida yashirishga urinadi, jamoatchilikka bildirmaslikka harakat qiladi. Holbuki, bu huquqbuzarliklarni na qonun, na din va na axloq oqlaydi.

Tarixiy ahamiyatga molik qonun

So‘nggi yillarda yurtimizda bolalarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ma’nan hamda jismonan yetuk bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oila muhitida kamol topish farzandning uzviy huquqi ekanini inobatga olgan holda, ijtimoiy himoya xizmatlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani), Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya, Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi yangi zamon talablari asosida faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya doirasida ham bolalarni turli ko‘rinishdagi zo‘ravonliklardan, inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakllardagi muomaladan himoya qilishga doir chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Ammo shiddatkor davr barcha sohalarda bo‘lgani kabi bolalar huquqlarini muhofaza qilish tizimida ham qonunchilik tizimini takomillashtirish, dunyoning ilg‘or davlatlari tajribasini amalga tatbiq etish talabini qo‘ymoqda. Keng jamoatchilik vakillari, soha mutaxassislari ta’kidlaganidek, bolalarni zo‘ravonliklardan himoya qilishga doir mavjud huquqiy mexanizmlar ham yetarli samara bermayotgan edi.

Shu ma’noda, joriy yil 14-noyabrda Prezidentimiz tomonidan “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun imzolangani tarixiy hodisa bo‘ldi.

Mazkur qonun jamiyatda yetilib kelgan kuchli ehtiyoj, jamoatchilik talabi va xalqaro tashkilotlar tavsiyalari asosida ishlab chiqildi. U bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish borasidagi huquqiy asoslarni mustahkamlab, bu borada davlat organlarining vakolatlarini aniq belgilab bergani bilan ahamiyatlidir.

Hozirga qadar qonunchiligimizda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik to‘la-to‘kis ta’rif, tavsif va tasnif etilmagan, binobarin, unga qarshi kurash mexanizmlarida ham bo‘shliqlar mavjud edi. Yangi qonunda jismoniy, jinsiy va ruhiy zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish hamda ta’qib etish bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning shakllari sifatida aniq belgilandi.

“Tig‘ yarasi bitadi, til yarasi bitmaydi”, degan gap bor. So‘nggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda bolalarni ta’qib etish, tahqirlash, ruhiy tajovuzkor ta’sir o‘tkazish kabi illatlar ko‘paymoqda. Yangi qonunga muvofiq, telekommunikatsiya tarmoqlari va internet tarmog‘idan foydalangan holda amalga oshiriladigan shu turdagi huquqbuzarliklar ham bolalarga nisbatan zo‘ravonliklar sirasiga kiritildi.

Zo‘ravonlikka qarshi shunchaki targ‘ibot-tashviqot bilan kurashish vaqti o‘tdi. Yuzaga kelgan vaziyat davlat o‘z bisotidagi ta’sir choralarini ko‘rishini talab etayotir. Shunga ko‘ra, endi jabrdiydalarga himoya orderi berishdan tortib, sog‘liq, jinsiy erkinlik, oila, yoshlar va axloqqa qarshi jinoyatlar sodir etgan shaxslarning huquqlarini cheklashga qadar keng ko‘lamli choralar belgilanmoqda.

Tan olish kerak, shu vaqtga qadar bolalar huquqlarini himoya qilishga mas’ul idoralar asosan oqibatga qarshi kurashib keldi. Endi bu borada muammoning tub ildizini o‘rganish, shunchaki oqibat emas, balki sabablarga qarshi kurashish tizimi joriy etiladi. Qonunda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etganlarning xulq-atvorini tuzatishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilandi. Jumladan, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etgan yoki uni sodir etishga moyil shaxs zo‘ravonlik xulq-atvorini o‘zgartirish bo‘yicha tuzatish dasturidan o‘tadi.

Hikmatlarda odamzodning dunyoqarashini o‘zgartirish tog‘ni joyidan siljitmoqdan ham og‘irroq yumush ekani aytiladi. Jamiyatimizda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni ijtimoiy norma deb hisoblaydigan, tarbiyada jismoniy kuch qo‘llash zarur, deb biladigan oilalar hali-hanuz bor. Shunga ko‘ra, yangi qonun bilan ota-onalar mas’uliyati yana bir karra oshirilmoqda. Jumladan, ota-onalar bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishi shartligi, tarbiyada jismoniy jazolash taqiqlanishi belgilanmoqda.

Albatta, davlat tashkilotlari bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka murosasiz kayfiyatda faoliyat yuritadi. Mas’ul idoralar bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish uchun tegishli huquqiy, ma’muriy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa choralarni ko‘radi. Shunday hayot sinoviga ro‘baro‘ kelgan farzandlarimizga huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy ko‘mak ko‘rsatiladi. Ruhiy, jismoniy jarohatning salbiy ta’sirini kamaytirish, ularning sog‘lig‘ini tiklash va mustahkamlash, to‘laqonli reabilitatsiyasi uchun kerakli shart-sharoitlar yaratiladi.

Daholar qanday tarbiyalanadi?

Nihoyatda bolajonligi bilan tanilgan xalqimiz orasida tiliga, qo‘liga, nafsiga erk berayotganlar qachon, qanday paydo bo‘ldi? Bu illat “Troya oti” misol qay vaqt oramizga suqilib kirib oldi o‘zi?

Muammoning ildizlari hamda unga qarshi kurash usullari xususida sohalar mutaxassislari o‘z fikr-qarashlarini bildiradi, albatta. Biz gazetxonlar e’tiborini o‘zimiz shohid bo‘lgan bir holatga qaratmoqchimiz. Achchiq bo‘lsa-da, ochiq tan olaylik: biz o‘zaro muloqot, ko‘ngil yorib gaplashish, ayniqsa, kattalarning bolalar bilan bafurja suhbatlashishi borasida, afsuski, ko‘p maqtana olmaymiz. Buni aholi orasida o‘tkazilayotgan ijtimoiy so‘rov natijalari ham ko‘rsatib turibdi. Ularga ko‘ra, masalan, otalar o‘z farzandlari bilan bir sutkada o‘rtacha 5-6 daqiqagina gaplashsa, onalar sal ko‘proq (7-8 daqiqa) suhbatlashadi. Bu gaplar ham aksar hollarda bolalarimizga beradigan kundalik topshiriq va so‘roqlarimizdan iborat bo‘ladi, xolos.

Ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat “Oila” asarida turkistonlik, buxorolik ota-onalar bolalari ehtiyojlari bilan qiziqish, ularning taqdiri xususida o‘ylashdan ko‘ra, qo‘radagi mol-qo‘yining ahvoliga ko‘proq jon kuydirishini cheksiz nadomat ila yozgan edi. Xo‘sh, oradan bir asrdan mo‘lroq vaqt o‘tib, ahvolimiz ne qadar o‘zgardi?

Tarixda o‘chmas nom qoldirgan aksar buyuk shaxslar, daholar, davlat arboblari, ijodkorlar haqidagi manbalar shundan darak beradiki, ularning bolaligi iqtidorning o‘sishiga ko‘maklashadigan sog‘lom va pokiza muhitda o‘tgan. Yaqinlaridan barvaqt ayrilgan Abu Rayhon Beruniy, qiblagohidan yoshlik chog‘idayoq yetim qolgan Muhammad G‘azzoliyning boshini silovchi mehribon qo‘l bo‘lmaganida, biri allomalar ustozi, ikkinchi hujjat ul-islom maqomiga ko‘tarila olarmidi?!

Yurtimizda akademik adib Oybekning “Bolalik” qissasi kirib bormagan xonadon bo‘lmasa kerak. Yodingizda bo‘lsa, Dadaqo‘zi ota yosh Musoning jamiki savollariga erinmay javob berar ekan, uning bolalik istaklarini bajo etadi. Boshqalarning e’tirozlariga esa “Bolaning ko‘ngli — poshsho! Bolaning ko‘ngli — tilla!” deya javob beradi. Xo‘sh, Dadaqo‘zi boboning beminnat e’tibori, bemisl mehri bo‘lmaganida, millatimiz Oybekdek donishmand adibga ega bo‘larmidi?!

Arpa ekib, bug‘doy kutmang!..

Unutmaylikki, navnihol kabi unib-o‘sayotgan bolaga nisbatan zo‘ravonlik uning jismoniy va ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, yorug‘ kelajagiga ham soya soladi. Yana yodda tutaylikki, tahqir ko‘rmagan bolagina o‘z qadr-qimmatini teran anglaydigan barkamol shaxs bo‘lib yetishadi.

Zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan bolalarning ta’lim olish, jamiyatga to‘laqonli ijtimoiylashuv qobiliyati pasayadi. Eng xatarlisi, zo‘ravonlik bolaning ongu ruhiyatini majruh etadi. Vaqt o‘tib jismoniy jarohat bitib ketar, ammo qalbdagi chandiqni ketkazib bo‘lmaydi.

Zo‘ravonlik zo‘ravonlikka doyalik qiladi. Hayotiy tajribadan ma’lum, zo‘ravonlikni boshidan kechirgan bola keyinchalik o‘zi ham ayni shu nomaqbul ishga qo‘l urishi uchrab turadi. “Arpa ekib, bug‘doy kutmang!” degan maqolimizda ham ayni shu hayot haqiqati mujassam.

“Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunni hayotga to‘la-to‘kis tatbiq etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqaruv organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari tashabbus, jonbozlik ko‘rsatishi shart. Qolaversa, jamoat faollari, mahallalarimizdagi kayvonilar ushbu xayrli ishda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tuzilmalariga ko‘makchi bo‘lishi zarur.

Eng asosiysi, mahalla-ko‘y, ta’lim-tarbiya maskanlari, oilalarda ro‘y bergan har bir zo‘ravonlik holati kundalik maishiy mojaro deb emas, balki favqulodda holat deb qabul qilinishi kerak. Ya’ni zulm-zo‘ravonlikning har qanday shakliga toqatsizlik muhiti yaratilishi shart. Unga qarshi butun jamiyat, butun mamlakat — barchamiz bir tanu bir jon bo‘lgan holda kurashmog‘imiz lozim.

Darvoqe, maqola muqaddimasida tasvirlangan hodisaga qaytsak. Xayriyatki, hamma ham xudbin emas. Shu yerdan o‘tib ketayotgan ziyolinamo bir kishi jahl otiga minib, aqlidan ayrilgan otani insofga chaqirdi. “Yo‘lingizdan qolmang, urishayotgan bo‘lsam, o‘z o‘g‘limni urishyapman”, dedi erkak tanbeh egasiga o‘qraygancha. “Kechirib qo‘yasiz, bu bola faqat sizning emas, el-yurtning ham farzandi. Mayli, yaxshi gapga ko‘nmasangiz, militsiya chaqiraman!”. Huquq idoralarining daragini eshitgan erkak birdan yuvosh tortdi...

Darhaqiqat, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikdek xunuk hodisalarga endi tomoshabin bo‘lmoqqa haqqimiz yo‘q. Jondan aziz bolalarimiz, nuridiydalarimizni zo‘ravonlik, yomon nafas, nazarlardan ihotalamoq har birimizning insoniy, imoniy burchimizdir. Andak balandparvoz eshitilsa-da, dangalini aytaylik: bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni ko‘rib ko‘rmaslikka olish, bu borada mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘yish millat kelajagi, vatan istiqboliga xiyonat sifatida baholanmog‘i lozim.

ZO‘RAVONLIKKA QARSHI SHUNCHAKI TARG‘IBOT-TASHVIQOT BILAN KURASHISH VAQTI O‘TDI. YUZAGA KELGAN VAZIYAT DAVLAT O‘Z BISOTIDAGI TA’SIR CHORALARINI KO‘RISHINI TALAB ETAYOTIR. SHUNGA KO‘RA, ENDI JABRDIYDALARGA HIMOYA ORDERI BERISHDAN TORTIB, SOG‘LIQ, JINSIY ERKINLIK, OILA, YOSHLAR VA AXLOQQA QARSHI JINOYATLAR SODIR ETGAN SHAXSLARNING HUQUQLARINI CHEKLASHGA QADAR KENG KO‘LAMLI CHORALAR BELGILANMOQDA.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!





“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4380.
39932 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 21:10 Topshirildi — 23:45

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05